

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

5111600 – “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
O‘roqova Shohsanam Komiljon qizining “Ona yurtimiz baxtu saodati va buyuk kelajagi yo’lida
xizmat qilish - eng oliy saodatdir” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

prof. S.Inoyatov

Navoiy – 2016

**VATANIMIZ KELAJAGI UCHUN ISHONCH VA G'URUR
TUYG'ULARINI UYG'OTISHDA PREZIDENT I.A.KARIMOVNING “ONA
YURTIMIZ BAXTU SAODATI VA BUYUK KELAJAGI YO'LIDA XIZMAT
QILISH – ENG OLIY SAODATDIR” KITOBINING AHAMIYATI**

Reja:

KIRISH

**I.BOB. BUGUNGI YOSHLARNI VATANPARVARLIK VA KOMIL
INSON RUHIDA TARBIYALASHDA USHBU KITOBNING AXAMIYATI**

- 1.1. Mustaqillik – tog'dek tayanchimiz, qudratli zaminimizdir.
- 1.2. Kim edigu kim bo'ldik? Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?
- 1.3. “O'zbek modeli” – yorug' istiqbolimizni belgilab bergan taraqqiyot yo'li

**II. PREZIDENTIMIZNING USHBU ASARDA KELITIRILGAN
ISHONCHLI VA TARIXIY FIKRLARINING MOHIYATI**

- 2.1. Keksalar – xonadonlarimizning fayzu farishtasi
- 2.2. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart. Prezidentimizning yoshlarga bo'lgan yuksak ishonchi va e'tibori

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Ma'lumki, 2015 yil 29 mart kuni yurtimizda ulkan siyosiy voqea – O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov bo'lib o'tdi. Har tomonlama yuqori saviyada, muqobillik asosida o'tgan bu saylov mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo'lida muhim, hal qiluvchi bosqich bo'lib, xalqimizning o'z kuchi va salohiyatiga bo'lgan ishonchi naqadar mustahkam ekani, uning siyosiy-huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi, Vatanimiz taqdiri uchun daxldorlik hissi tobora ortib borayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Konstitutsiyamiz, milliy va xalqaro huquq normalari, demokratik tamoyillar asosida o'tkazilgan ushbu saylovda saylovchilarning 90,39 foizi Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimovga ovoz berdi. Bunday yorqin g'alaba, hech shubhasiz, Islom Karimovning davlat rahbari sifatida O'zbekiston mustaqilligini ta'minlash, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi strategik maqsad va vazifalarni hal etish yo'lidagi beqiyos xizmatlari, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning xalqimiz tomonidan yuksak e'tirof etilgani va yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanganidan dalolat beradi.

Ushbu kitobdan davlatimiz rahbarining saylovoldi jarayonlaridagi 20 dan ziyod uchrashuv va anjumanlarda, jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari bilan uchrashuvlarda, ikkala palataning qo'shma majlisida, Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining yig'ilishida, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining VII s'ezdida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar saylovchilari vakillari bilan uchrashuvlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimidagi nutq va ma'ruzalarida, shuningdek, 9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalariga bergan intervyusida

bildirgan eng muhim, konseptual ahamiyatga ega g'oya va fikr-mulohazalari o'rin olgan.

Davlatimiz va jamiyatimizning yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi aniq-ravshan belgilab berilgan ana shu chiqishlarda mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarish, uning iqtisodiy qudratini oshirish, ijtimoiy sohalar – ta'lim-tarbiya, ilmu fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport tizimini izchil rivojlantirish, ayollar, keksalar va yoshlarimiz uchun yanada qulay sharoit va imkoniyatlar yaratish, har bir hudud va mintaqani ravnaq toptirishga doir yangi reja va ustuvor loyihalar, bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan keskinlik va qarama-qarshiliklarning mohiyati, turli tahdidlarning oldini olish, O'zbekistonning tashqi siyosat konsepsiyasi to'g'risidagi qarashlar har tomonlama puxta asoslangan holda bayon qilingan.

Mazkur to'plamning bosh g'oyasini quyidagi so'zlarda mujassam bo'lgan eng muhim o'zak fikr tashkil etadi: “Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, **“Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?”** degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda “Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?” degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim”¹.

Ana shunday yondashuv asosida mamlakatimizning mustaqillik yillarida bosib o'tgan tarixiy yo'li teran tahlil qilinib, bu hayotiy savollarga chuqur va haqqoniy javoblar berilgani nashrning qimmatini yanada oshiradi.

Ushbu kitobni mutolaa qilar ekanmiz, har bir masalaga xalqimizning milliy manfaati va yana bir bor milliy manfaati nuqtai nazaridan yondashish, teran qiyosiy-tahliliy mushohada, tarix, zamon va kelajakni bir butun dialektik hodisa sifatida ko'rish, har qanday mavzuda jo'shqin bahs va muloqotga tayyorlik – bularning

¹ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O'zbekiston, 2015. B.5.

barchasi mustaqil o'zbek davlatining asoschisi, dunyo miqyosida tan olingan yirik davlat va siyosat arbobi Islom Karimovning siyosiy uslubiga xos bo'lgan yorqin xususiyatlar ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Biz "ona Vatan" degan iborani ko'p o'qiganmiz, eshitganmiz, aytganmiz. Lekin 74 yil bizni bog'chadan boshlab: "Ona vatanim - SSSR", - deb aytgin, deb aldab kelishdi. Bugun ko'zlarimizni katta ochib qarasak, u millionlab o'zbekistonlik go'daklarni o'ldirgan o'gay ona ekan.

Dalil. 1991 yilda sobiq markazdan "Narodnoye xozyaystvo SSSR v 1990g." Degan statistik hisobot e'lon qilindi. Unga ko'ra 1985-1987 yillarda SSSRning ayrim respublikalarida bolalar o'limi (har 1000 nafar tug'ilgan bir yoshgacha bo'lgan boladan bittasi o'lgani) to'g'risida ma'lumot berildi. Unda 1985 yilda SSSR da tug'ilgan har 1000 chaqaloqning 26 nafari bir yoshga kirmay o'lgani ko'rsatilgan. O'zbekiston bolalar o'limi bo'yicha SSSR da doimiy ravishda birinchi o'rinda turgan.

Mustaqil bo'ldik. o'z haqiqiy Ona Vatanimiz mehri tezda sezildi. Bugungi kunda xalqimizning o'rtacha umri 1990 yildagi 67 yoshga nisbatan 73,5 yoshga ortdi. Onalar o'limi 3,1 martaga, go'daklar o'limi 3,2 martaga kamaydi. "Save the Children" xalqaro tashkiloti reytingiga ko'ra, O'zbekiston dunyodai bolalar salomatligi to'g'risida eng ko'p g'amxo'rlik qiladigan o'nta mamlakat qatoridan joy oldi. Bu "Biz kim edik" degan savolga yana bir alamli javob.

Yigirma to'rt yillik tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk yillarda qiyinchiliklar bo'lganini tan olish kerak. Chunki bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish jarayoni oson emas. Tashqi kuchlar O'zbekiston ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashmoqchi bo'ldi. Turli diniy oqimlar, ekstremistik, terrorchi guruhlarining yurtimizga suqilib kirishi xalqimizning farovon turmush sari tashlagan qadamlarini to'xtatib qololmadi. Mustaqillik arafasi va ilk yillaridagi fojealar, terror harakatlari, undan keyingi ko'ngilsiz voqealar xalqimiz uchun katta sinov bo'lishi bilan bir qatorda o'zbekistonliklarni jipslashtirishga xizmat qildi. Bir so'z bilan aytganda, yurtboshimiz rahnamoligida O'zbekiston xalqi vatanimizning terrorchi va

ekstremistlar nayzalari ostida qolishiga yo'l qo'yilmadi. Agar haqiqat nuqtai nazaridan baho beriladigan bo'lsa, xolis kuzatuvchi O'zbekistonda mustaqillik yillari haqiqiy taraqqiyot bo'lganini tan oladi. Ham to'g'ri, ham ko'chma ma'noda gapiradigan bo'lsak mustaqillikning ilk yillarida biz yurishimiz kerak bo'lgan yo'l yo'q edi. SHoir "ucharga har qushdan pat so'ramadim" deb yozganidek, ayrim davlatlarga o'xshab tashqi yordamga ko'z tikib o'tirmadik. "Qarz olish oson, bu hammamizga ma'lum, lekin bir kun kelib to'lash ham kerak. Biz faqatgina bugungi kunni emas, balki ertamizni, kelajak avlodlarni ham o'ylashimiz kerak. Biz hozir xato qilib qo'ysak, farzandlarimiz kelajakda qoqilib qolishini hisobga olmasak, bu katta gunoh bo'ladi"², deb yozdi keyinchalik mamlakatimiz rahbari.

O'zbekistonning o'z yo'lini ishlab chiqish uchun ko'p ter to'kildi. Tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt yo'qligi anglab yetilgan xolda ana shu yo'l ishlab chiqildi. Buning natijasi o'laroq olg'a tashlangan qadamdan aslo chekinmadik. To'g'risi chekinishni, erishilgan marralarni qo'ldan boy berish hayolga kelmadi. Tanlagan yo'limiz to'g'riligiga hech kim shubha qilmadi. Mana shu qisqa muddat ichida katta vazifalar hal qilinar ekan, muvaffaqiyatsizliklarga yo'l qo'yib bo'lmasdi. O'zbekistonliklar bir tan, bir jon bo'lib yo'lda uchragan har qanday to'siqlarni bartaraf etishar ekan, mustaqillikni mustahkamlash ishiga katta hissa qo'shdilar. Balki chet elliklar uchun "Afrosiyob", "Toshkent-Samarqand", "Toshkent-Buxoro", "Toshkent-Qarshi" tez yurar poyezdlarining qatnovi, Qamchiq davoni, "Toshguzor-Qumqo'rg'on-Boysun", Qizilqumni qoq o'rtasidan kesib o'tgan Nukusgacha boruvchi temir yo'llarining qurilishi, poytaxtimiz Toshkentning butunlay yangi qiyofaga kirishi odatiy xol bo'lishi mumkin. Lekin bu MUSTAQILLIK deb atalmish daraxtning mevalaridir.

Mustaqil O'zbekistonda o'z tarixi, ma'naviyati, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarini anglashga yangicha yondashish jarayonida qo'lga kiritilgan yutuqlarga Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan demokratik

² Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O'zbekiston, 2015. B.6.

jamiyat qurish konsepsiyasi nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu konsepsiya millatimizning o'ziga xos urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini, mentaliteti hamda mamlakatimiz taraqqiyot darajalarini qat'iy hisobga olishi bilan "o'zbek modeli"ni o'zida aks ettirgan.

O'zbekiston sobiq sho'rolar totalitarizmi sharoitida yashab kelganligi bois, uni tugatib, demokratik jamiyat qurish tomon qadam qo'yish juda murakkab masala edi. Chunki, totalitarizm nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotga, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy hayotga, insonlarning dunyoqarashiga o'zining ta'sirini o'tkazgan edi. Shuning uchun ham demokratik jamiyat qurishning "o'zbek modeli"da jamiyatni tubdan o'zgartirishga xizmat qiluvchi asosiy tayanch manba sifatida yangi ma'naviyat va dunyoqarashni shakllantirish vazifasi belgilandi.

Prezidentimiz 1992 yildayoq, "Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak, deganlar haq bo'lmasalar kerak. Ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir"³, -deb ta'kidlagan edi.

Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda beqiyos ahamiyat kasb etadigan mazkur kitob hozirgi va ertangi kunimizning eng ustuvor yo'nalishlarini o'zida mujassam etib, yangi va yaqin tariximizning hali biz to'la anglab yetmagan ko'plab qirralarini kashf etishda, jamiyatimizning taraqqiyot falsafasini, mamlakatimiz va xalqimiz kelajagi, uning ravnaqini belgilab berishda, ayniqsa, yoshlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

³ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O'zbekiston, 2015. B.11.

I.BOB. BUGUNGI YOSHLARNI VATANPARVARLIK VA KOMIL INSON RUHIDA TARBIYALASHDA USHBU KITOBNING AXAMIYATI

1.1. Mustaqillik – tog'dek tayanchimiz, qudratli zaminimizdir.

Mustaqillikka erishish, ajdodlarimizning boy milliy-ma'naviy merosini tiklash, milliy-ma'naviyatimizni yuksaltirish doimo xalqimizning asriy orzularidan biri bo'lib kelgan.

Ma'lumki, qadimiy Turkistonning mislsiz tabiiy resurslari, moddiy va ma'naviy boyliklari bir necha yuz va ming yillar osha ajnabiy mamlakatlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib, hasadu havasini kuchaytirib, bosqinchilik ishtahalarini avj oldirib kelgan. Bu yurt, jannatmakon bu o'lkaga qanchadan-qancha dushmanlar, qilichidan qon tomib turgan bosqinchi galalar bostirib keldi va yerli xalqni asoratga solib, moddiy va ma'naviy boyliklarini oyoq osti qildilar. Har safar bu yerning vatanparvar xalqi o'z vatani mustaqilligi uchun tinimsiz kurash olib borib, yuzlab jasur, otashqalb farzandlaridan ayrildi.

Turkiston eng qadimiy davrlardan boshlab dushmanlarga qarshi kurashda buyuk jasorat maydoni bo'lib kelgan. Miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoy istilosi, Eron shohlari va YUnon-makedon, eftalitlar, arablar va mo'g'ul-tatar bosqini, CHor Rossiyasi, Sobiq sovet davlatining istilochilik harakatlarini eslab o'tish kifoyadir.

Ma'lumki, tarixda birorta xalq, biron-bir millat o'z mustaqilligini hech qachon osonlik bilan qo'lga kiritmagan. SHu bilan birga, istiqloлга erishish va uning ne'matlaridan foydalanish bir kun va hatto, bir necha yil davomida amalga oshmagan. O'z yurtining ozodligi va xalqining baxt-saodati uchun hayot-mamot janglarida jonini qurbon qilgan ajdodlarimizning muqaddas nomlarini g'urur bilan tilga olamiz. Tumaris, SHiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Amir Temur kabi ajdodlarimiz ajnabiy bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurash olib borib markazlashgan mustaqil davlat tuzish uchun jonlarini fido qildilar va avlodlar xotirasida abadiy saqlanib qoldilar.

Mustaqillik - inson uchun oliy ne'mat. Faqat mustaqillik sharofati bilan xalq o'z ozodligi, erkiga, o'z taqdirini, o'z hayotini o'zi barpo etish imkoniga ega bo'ladi. Mustaqillik har qanday xalq, elat va millatning tabiiy, qonuniy ehtiyoji, oliy maqsadidir. Xalq uchun mustaqillikdan ko'ra ortiqroq oliy baxt, quvonch yo'q va bo'lgan ham emas. Mustaqillik har bir inson, har bir millatning hech narsa bilan cheklanmagan erkinligidir. Mustaqil so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor bersak, bu so'z arabcha so'z bo'lib, "qaram emas, erkin" degan ma'noni anglatadi. Mustaqil davlat deganda esa, o'sha davlatning o'ziga xos eng muhim belgilari ko'z oldimizda namoyon bo'ladi; ya'ni, davlatning daxlsiz o'z hududiga, chegarasiga ega bo'lishi; fuqarolarini o'zi fuqarolikka qabul qilishi va fuqarolikdan mahrum eta olishi; o'z Qomusi-Konstitutsiyasiga ega bo'lishi; hokimiyatning uch tarmog'i-qonun chiqaruvchi, ijro hokimiyati, sud hokimiyatiga egaligi; o'z harbiy tuzilmasi va milliy qo'shiniga egaligi; Mustaqil davlat sifatida chet davlatlar bilan har tomonlama aloqalar o'rnatish; o'z davlat byudjeti, mulki va moliyaviy tizimiga ega bo'lishi; o'z davlat ramzlariga egaligi va davlat tiliga egalik huquqini qo'lga kiritishi hamda o'z taraqqiyot yo'lini erkin belgilay olishi kabi huquqlarga ega bo'lishidir. Ushbu belgilarning barchasi 1991 yil 31 avgustda dunyoga o'z mustaqilligini e'lon qilgan O'zbekiston Respublikasi qo'lga kiritgan erkinliklar edi.

YAqin o'tmishimizga nazar soladigan bo'lsak, 80-yillar oxiri va 90-yillar boshida O'zbekiston dadillik bilan iqtisodiy mustaqillik va siyosiy suverenitetni qo'lga kiritish uchun amaliy harakat qila boshladi. Ayni chog'da O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi va siyosiy suverenitetini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish uchun ham konkret choralar ko'rildi. Bu borada xalqning xohish-irodasi hisobga olindi.

Masalan, O'zbekiston rahbariyati va xalqining O'zbekistonning mustaqillik sari dadil qadam qo'yayotganini 1991 yil 17 martidagi umumxalq referendumida ham yaqqol ko'rish mumkin. 1991 yil 20 fevralda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatining yig'ilishi bo'lib, unda SSSR Oliy Kengashi tomonidan

belgilangan referendumda ovoz berishga mo'ljallangan asosiy byulleten bilan birga «O'zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli respublika bo'lib qolishiga rozimisiz?» degan savol qo'yilgan qo'shimcha byulleten kiritishga qaror qilindi. Byulletendagi ushbu matn o'zgartirilishi mumkin emas, deb belgilandi.

Oliy Kengash Rayosati viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklariga bo'lajak referendumda O'zbekistonning mustaqil bo'lishiga munosabat bildiruvchi ushbu byulleten matni yuzasidan mehnatkashlar ommasi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borishni topshirdi. Bu ishlarga huquqshunoslar, mutaxassislar, ziyolilar vakillarini keng jalb qilish tavsiya qilindi.

Referendum yakuni shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida bo'lishiga doir qo'shimcha byulleten bo'yicha 9 million 215 ming 571 nafar kishi yoki ovoz beruvchilarning 93,9 foizi ovoz berdi.

SHunday qilib, bu referendumda O'zbekiston xalqining mutlaq ko'pchiligida O'zbekistonni mustaqil respublika sifatida ko'rish xohishi borligining o'ziyoq respublika rahbariyatining bu boradagi dadil kuch-g'ayratini qo'llab-quvvatlash ifodasi va qaramlikdan zada bo'lgan xalqimizning asriy orzularining ro'yobi uchun qo'yilgan mardanovor qadamlaridan biri edi. SHuningdek, bu xalqimiz qalbida jahonga yuz tutish, tenglar ichida teng bo'lish, o'z taqdirini mustaqil belgilash, hech kimdan kam bo'lmaydigan jamiyat qurishdik yuksak maqsadlarni o'z ichiga olgan ezgu qarashlarning uyg'onayotganidan darak edi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlari tayyorlash va qabul qilish ishlari ham dadil boshlab yuborildi.

1990 yil 15 fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi «O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida» maxsus qaror qabul qildi. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

«Mustaqillik to'g'risidagi Deklaratsiyaga amal qilib, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi qaror qiladi:

1. O'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengash II sessiyasida tuzilgan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning yangi loyihasini tayyorlovchi komissiyasiga O'zbekiston SSRning YAngi Davlat bayrog'i, Gerbi va Madhiyasiga doir takliflar hamda ular to'g'risida Nizomlar tayyorlash topshirilsin. Komissiya respublika jamoatchiligi va deputatlarining fikrlariga tayanib ish ko'rsin.

2. Bu boradagi takliflar matbuotda e'lon qilinib, umumxalq muhokamasi uyushtirilsin».

O'zbekistonning o'z suvereniteti uchun kurashi, avvalo, jumhuriyatda qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga nechog'lik moslashtirilganiga qarab emas, balki respublika manfaati qay darajada ifoda etilganligida ekanligida namoyon bo'ldi.

Masalan, 1989 yil 20 oktyabrida o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasida «O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish» to'g'risidagi masala maxsus muhokama etildi. Sessiyada O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonun davlat mexanizmining hamma bo'g'inlari Oliy Sovetga bo'ysunishini nazarda tutishi alohida ta'kidlandi. Respublika Oliy Sovetiga eng oliy nazorat qiluvchi idora sifatida O'zbekiston SSRning yuqori mansabdor shaxslarini, shu jumladan, Oliy Sovet Raisini saylash, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Raisini, hukumat a'zolari va boshqa rahbar lavozimdagi kishilarni tasdiqlash yoki tayinlash va zarur bo'lganda ularni muddatidan oldin lavozimidan chaqirib olish huquqi berildi. Hukumatning bir yilda kamida bir marta Oliy Sovet oldida hisobot berishi majburiy qilib qo'yildi.

SHuningdek, Oliy Sovet byudjetini nazorat qilish, Minstrlik va idoralar ishini tekshirish, deputatlar so'rovini muhokama qilish masalalarini ham ko'rib chiqadigan bo'ldi.

Konstitutsiyaga kiritilgan bu o'zgartirishlar respublika davlat hokimiyatining oliy idorasiga mustaqil davlat oliy idorasiga xos zarur vakolatlarni berdi. Ayni chog'da

bu vakolatlar uning ijtimoiy adolat tamoyillari buzilgan hamma joyida zudlik bilan uni tiklashi, jamiyat turmushida yuz berishi mumkin bo'lgan noxush hodisalarning oldini olish imkoniyatini ham berdi.

Aytish kerakki, respublika rahbariyatining O'zbekistonning siyosiy suverenitetini ta'minlashga qaratilgan qat'iy pozitsiyasi I.A.Karimov tomonidan kun tartibiga qo'yildi.

Jumladan, u KPSS Markaziy Komitetining 1989 yil 20 sentyabrda Moskvada bo'lib o'tgan plenumida dadil tarzda: **«Biz Ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq ravshan belgilab qo'yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz»**, deb ta'kidladi⁴. Oradan biroz o'tganidan so'ng, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1990 yil 23 martidagi Plenumida u O'zbekistonning iqtisodiy mustaqillikka erishishning asosiy yo'llarini ko'rsatib: **«Siyosiy sistemani yangilash masalalarini O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi muammolaridan ajralgan holda qarash mumkin emas. Bizda bunday mustaqillik uchun shart-sharoit bor»**, - degan fikrni bildiradi⁵.

Darhaqiqat, 1980 yillarning oxirlaridan boshlab respublikada iqtisodiy va siyosiy suverenitet uchun qadam-baqadam chora-tadbirlar ko'rildi. Masalan, O'zbekiston SSR Oliy Soveti 1989 yil 25 noyabrda bo'lgan sessiyada «O'zbekiston SSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1990 yilgi Davlat plani to'g'risida»gi masalani muhokama qilar ekan, respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga oid muhim tadbirlarni belgiladi. **«1990 yilga mo'ljallangan plan, - deb ta'kidlanadi sessiyada, - respublikaning o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash prinsiplariga o'tish arafasida uning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish talablarini hisobga olgan holda tuzilgan edi... Eng asosiysi respublikaning sharoiti, o'ziga xos**

⁴ Jo'rayev Narzullo. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob /Mas'ul muharrir N. Abduazimova. – T.: “Sharq”, 2011. – 30-31-b.

⁵ O'sha manba, 30-b.

xususiyati, an'anaviy marosimlari va manbalaridan kelib chiqqan holda territorial xo'jalik hisobining o'z konsepsiyasini ishlab chiqishdir»⁶.

Sessiya 1990 yil plani byudjet loyihalarida hukumatning o'zlashtirilgan kapital mablag'lari sotsial ehtiyojlarga sarf qilinishini qonunan to'g'ri va asosli deb hisobladi hamda **«respublikaning suvereniteti ayni shunda yaqqol ko'rinadi»,** deb ta'kidladi⁷.

Sessiyada respublikaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi qaror qabul qilindi: **«1990 yilda Sovet va xo'jalik organlari, ilmiy muassasalar ishining muhim yo'nalishi respublikani o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash prinsipiga o'tishga tayyorlash yuzasidan amaliy tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat, deb hisoblansin.**

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti bu ish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishning real resurslarini hamda amal qilish imkoniyatlari – strukturani tubdan takomillashtirish va uning ilmiy-texnikaviy hamda tashkiliy darajasini oshirish imkoniyatlarini har tomonlama qarab chiqsin... amalga oshirilayotgan siyosiy sistema islohotini, ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishni hisobga olgan holda respublikaning iqtisodiy suverenitetini kengaytirishning asosiy yo'llarini belgilasin»⁸.

1990 yil 23 martida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumi bo'ldi. Unda O'zbekiston SSRning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarni tahlil etishga va konsepsiyalarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berildi. Plenum yangilanayotgan siyosiy tizimda respublika Kompartiyasining o'rni va mavqei, uning davlat hokimiyati idoralari va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro munosabati prinsiplari to'g'risidagi masalalarni muhokama qilib, buyruqbozlikdan, ma'muriyatchilikdan voz kechish lozimligini uqtirdi. SHu bilan birga, plenum respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni hayot taqozo

⁶ O'sha manba, 30- b.

⁷ O'sha manba, 30- b.

⁸ Jo'rayev Narzullo. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob /Mas'ul muharrir N. Abduazimova. – T.: "Sharq", 2011. – 30-31-b.

qilayotganini ko'rsatib, real hokimiyat O'zbekiston Kompartiyasidan, uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq deputatlari sovetlariga berilishi bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishlari lozimligini ta'kidlab, yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etadi, deb ta'kidladi.

O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi masalasining ko'tarilishi prinsipial amaliy va tarixiy hodisa bo'ldi. Respublikada boshqaruvning ayni ana shunday shakli joriy etilishi, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalardagi muammolarni hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashish vositasi sifatida joriy qilindi. Eng muhimi shundan iboratki, Prezident muassasasining joriy etilishi – respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o'tishni bildirar edi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, ayni shu paytda keng miqyosda tartib va intizomni, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalarida va jabhalarida ijro mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini o'z vaqtida hal etish masalasi, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi barcha davlat muassasalarini nazorat qilish ham katta ahamiyat kasb etmoqda edi.

Ana shu ob'ektiv holatni hisobga olib, 1990 yil 24 martda XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo'ldi. Sessiya O'zbekiston tarixida birinchi marta prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Prezidenti etib saylash to'g'risida qaror qabul qildi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda Prezident lavozimining ta'sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan navbatdagi dadil qadamlardan edi.

Respublikaning birinchi Prezidenti I.A.Karimov sessiyada **«Bu katta ishonch uchun o'zimning minnatdorchiligimni bildiraman, men buni, eng avvalo, o'zbek xalqi, O'zbekiston SSRning barcha mehnatkashlari, ishchilar sinfi, dehqonlar, ziyolilar, jumhuriyatimizda yashovchi hamma millat va xalqlar**

taqdiri uchun o'z zimmamga tushgan ulkan burch va javobgarlik deb qabul qilaman. Har bir grajdanning konstitutson huquqi va erkinliklarini ta'minlash yo'lida katta mas'uliyat deb tushunaman», dedi⁹.

O'z fikrini davom ettirib, I.A.Karimov Prezident vazifasiga to'xtalib, quyidagilarni ta'kidladi: «**O'zbekiston Prezidenti sifatidagi o'zimning asosiy vazifalarimni nimadan iborat deb bilaman? O'zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish, shuningdek, Prezident boshqaruvining muhim vazifalaridan biri respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilishga o'tishini ta'minlashdir. Ayni chog'da mehnatkashlarning, aholining hamma tabaqalari farovonligini oshirish, odamlarning talab va ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish – respublika davlat hokimiyati organlaridan, shaxsan mendan, O'zbekiston SSR Prezidentidan doimiy e'tibor talab qiladigan vazifadir**»¹⁰. SHu tariqa Prezident eng qiyin, ziddiyatli, tahlikali bir paytda butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi.

Gap O'zbekiston mustaqilligi haqida borganda, shubhasiz, O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik deklaratsiyasining o'рни va ahamiyatiga alohida to'xtash lozim. Bu muhim hujjat O'zbekistonning mustaqillikka erishishida qo'yilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri edi.

Demak, Mustaqillik - tenglik sari qo'yilgan birinchi qadam. Tenglik bo'lmagan joyda kim kimgadir qaram bo'ladi. Tenglik odamlarning o'zaro munosabatlaridan tortib mamlakatlararo munosabatlarga hamma narsani me'yor-mezonga soladi.

Mustaqillik hech bir joyda oson, ravon, tep-tekis qo'lga kiritilgan emas. Qaysi davlatda mustaqillik amalga oshar ekan, u o'sha xalqning qoni va muqaddas joni evaziga, g'ayrat shijoati, matonati, sabru bardoshi orqali amalga oshgan.

⁹ Jo'rayev Narzullo. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob /Mas'ul muharrir N. Abduazimova. – T.: “Sharq”, 2011. – 32-betlar.

¹⁰ O'sha manba, 33-b.

Er yuzida ko'pgina xalqlar milliy mustaqillikka vatanparvar farzandlarining to'kilgan qoni, uzilgan jonlari evaziga erishgan. Masalan: AQSHning mustaqillik uchun kurashida (1775-1783 yillar) 150 mingga yaqin, Madagaskarda (1947 yil) 90 ming tinch aholi qurbon bo'lgan, Jazoirda (1954-1962 yillar) 1,5 million aholi qurbon bo'lib, 3 million kishi konslagerlarga tashlangan va h.k.

Mashhur xitoylik donishmand Sun szi "YUzta jangda g'alaba qilish emas, balki dushmanni qon to'kmay yengish – haqiqiy siyosiy san'atdir", degan edi. Bu bilan u, "Qo'lingizdan kelsa, hech kimning qonini to'kmay, bolalarni yetim qoldirmay vatanni ozod qiling. Biroq buning uchun barcha jabru jafoni zimmangizga olishingiz kerak. YA'ni, sizda tirik qolgan yuz minglab jon bahosiga teng keladigan salohiyat, siyosiy mahorat va jasorat mujassam bo'lmog'i lozim", deb aytadi.

90- yillarda mamlakatimizda Prezident I.Karimov boshchiligida ozodligimiz uchun hayot-mamot kurashi ketayotgan o'sha paytda o'zimizning ayrim amaldorlarimiz ham bunga qarshi chiqishdi. O'z ona Vatanining ozodligiga to'siqlar qo'yishdi. G'irrom qiliqlar qilishdi. Sotqinliklari keyinchalik fosh bo'ldi. O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da'voga?

Mustaqil bo'lganimizdan keyin ham o'zimizdan chiqqan sotqinlar sho'ro qulligidan qutilgan Vatanimizni boshqalarga pullamoqchi bo'lishdi.

Bu xiyonatlar xalqimizni Vatan himoyasiga, Prezident Islom Karimov atrofiga yanada jipsroq birlashtirdi.

SHu o'rinda bir xorijlik olim, bir davlat va siyosat arbobi shu haqda aytgan fikrlarini keltirmasak, adolatdan bo'lmas.

1. *Namangan voqealari haqida sobiq SSSRning mashhur mafkurachilaridan biri, keyinchalik Xalqaro "Demokratiya" fondi rahbari Aleksandr Lukyanov shunday deydi: "O'shanda O'zbekistonda diniy ekstremizm o'zining birinchi signalini bergan edi. Lekin bunga xalqaro jamoatchilik ham, Rossiya ham loqayd qarashdi. Mabodo tarix g'ildiragi o'sha olomon ko'rsatgan yo'l bilan ketsa, O'zbekiston boshiga qanday ko'rguliklar tushardi? Buning dahshatini tasavvur qilib bo'lmaydi..."*

2. Xorijlik xalqaro ekspert Zurab Todua: ***“SHu paytgacha SHaxsning tarixdagi roli yetarli baholanmay keldi. Vaholanki, tarixning qaltis burilish pallasida u yoki bu shaxs bo’lmasa, taraqqiyot butunlay boshqa tomonga qarab ketishi mumkin. O’zbekiston o’z misolida tinch, evolyutsion yo’l bilan mustaqillikka erishib, rivojlanish mumkinligini isbotladi”.***

Insoniyat tarixi hind xalqini tinch yo’l bilan mustaqillikka olib chiqqan rahnamosi, “Millat otasi” Mahatma Gandini yaxshi biladi. O’zbekistonda ham shunday bo’ldi. YUz minglab o’zbekistonliklarning joni, qoni, mulki asrab qolindi.

Bu – milliy ozodlik uchun kurashning xalq uchun eng beozor, biroq, Yo’lboshchisi uchun eng og’ir yo’li bo’ladi.

Mustaqillik arafasida, ya’ni 1991 yil 20 avgustda YUrtboshimizning respublika aholisiga murojaatida ham o’sha kunlarning sadosi eshitiladi.

“Bizga tinchlik va osoyishtalik kerak. Biz har bir oilaning tinch-totuv yashashi tarafdorimiz va shunga intilayotgan, shuni ta’minlaydigan siyosatni qo’llab-quvvatlaymiz.

Aziz yurtdoshlar!

YAna bir bor sizlarga murojaat qilaman. SHunday og’ir sinovdan o’tayotgan bir paytda xalqimiz sabr-toqat va bardosh bilan, vazmin bo’lib, tinchlikni saqlash maqsadida jipslashishi kerak. Bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish kerak. Tinchlikni buzayotgan, o’z manfaatini ko’zlayotgan har xil shaxslarga, muttahamlarga quloq solmasdan, xalqimiz o’zi tanlagan yo’ldan qolmasligi kerak. YUrtimiz, xalqimiz tarixda juda ko’p sinovlardan yuzi yorug’ bo’lib chiqqan.

Ishonamanki, bu og’ir sinovlardan ham eson-omon o’tamiz”.

Mustaqillik bu nafaqat buyuk yutuq, shu bilan birga juda katta mas’uliyat hamdir. Mustaqillikni asrash uni qo’lga kiritishga nisbatan og’irroq vazifadir. Ma’lumki, jahon tarixida o’z siyosiy mustaqilligini qo’lga kiritgandan keyin uni ichki va tashqi dushmanlardan saqlab qolish, xalqni bu mas’uliyatli ishga safarbar etishga jiddiy yondasha olmaganligi sababli yana qaram bo’lib qolganligini ko’rsatuvchi misollar kam emas, bu esa bizdan doimo ogoh bo’lishni, mustaqillikni har qanday

dushmanlardan, jumladan, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm hamda jamiyatimizga salbiy ta'sir etuvchi har qanday yot mafkuralardan saqlanishni talab etadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda jamiyat a'zolarining turli ko'rinishdagi iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishni real mexanizmlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati taraqqiyotning "O'zbek modeli"ning mazmun va mohiyatini hamda o'ziga xos jihatlari o'rganib tom ma'noda e'tirof etmoqda. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" ning asosiy maqsad va vazifalaridan biri, bu demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishdan iborat. Respublikamizda mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilishi natijasida uning iqtisodiy ko'rsatkichlari jahon mamlakatlari darajasiga yetib oldi.

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tashabbusi va bevosita rahnamoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashmoqda.

Agar 1990 yilda iste'mol uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi chetdan keltirilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda yurtimiz ishlab chiqarishni rivojlantirish, hisobidan aholining g'allaga bo'lgan ehtiyoji to'liq ta'minlanishiga g'alla maydonlarini kengaytirish va hosildorligini oshirish natijasida boshqoli don yetishtirish hajmi 1990 yilgi 2038,2 ming tonnadan 2013 yilda yetti yarim miliion tonnadan ziyod yetkazish natijasida erishildi.

Mustaqillik yillari mobaynida qishloq xo'jaligi sohasida bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Fermerlikni rivojlantirish, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligi uchun mustahkam huquqiy asoslar va kafolatlarni yaratib berildi.

Sobiq sovet xo'jalik yuritish tizimining barham topish davridagi bir oz pasayishdan so'ng, yurtimizda 1996 yildan boshlab sanoat ishlab chiqarishi hajmi izchil o'sib bormoqda. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik hajmi 2009 yilda 1990 yildagiga nisbatan 2,7 barobar, 2012 yilda esa 3 barobar ziyodga o'sishiga erishildi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda avtomobilsozlik, neft-gaz kimyo sanoati, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektrotexnika, farmatsevtika, zamonaviy oziq-ovqat sanoati va yengil sanoat kabi bir qator yangi sanoat tarmoqlari yaratildi.

Faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustivorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar. Buni hayotimizning o'zi bugun isbotlab bermoqda.

Siyosiy islohotlarimiz negizida turgan demokratik davlat qurishning eng asosiy talabi bo'lmish hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatiga bo'linishi, ko'ppartiyaviylik, ular o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta'minlaydigan tizim barpo etganimiz alohida e'tiborga sozovordir.

SHu borada jamiyatimizni erkinlashtirish, biznes yuritish uchun huquqiy va qonunchilik ba'zasi hamda zarur sharoitlarning muntazam ravishda takomillashtirilib borilgani iqtisodiyotimizni izchil va barqaror rivojlantirishda, aholimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirishda katta o'rin tutganini qayd etib o'tish lozim.

O'z-o'zidan ayonki, tobora chuqurlashib borayotgan islohotlar natijasida erishiladigan o'ta muhim o'zgarishlar hech qachon bir kunda, kimningdir hoxishi yoki buyrug'i hisobidan bo'lmaydi. Buning uchun avvalo vaqt kerak, eng asosiysi-bu islohotlarning mazmuni va maqsadlarini jamiyatimiz, halqimiz chuqur anglab olishi va qo'llab quvvatlashi xal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'tgan 22 yillik mustaqil taraqqiyotimiz davrida O'zbekiston iqtisodiyoti 4,1 barobar o'sdi. Agar mamlakatimiz aholisi ayni shu davrda qariyb 9,7 millionga ko'payib, bugungi kunda 30 million 500 ming kishiga yetganini hisobga oladigan bo'lsak, aholi jon byuoshiga nisbatan o'sish 3 barobardan ziyodni tashkil etishi bizning naqadar ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tganimizdan dalolat beradi.

Jahon miqiyosida hali beri davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning jiddiy ta'siriga qaramasdan, mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotining yillik o'sishi 2008-2013 yillarda 8% dan oshdi, 2014 yilda esa bu ko'rsatgich 8,1% ni tashkil etadi. Bunday o'sish sur'atlarini kamdan-kam davlatlarda ko'rishimiz mumkin.

Bularning barchasi, avvalo iqtisodiyotimizdagi ijobiy tarkibiy o'zgarishlar natijasi, yangitdan ishga tushirilgan, jahon bozorlarida talab katta bo'lgan raqobatdosh maxsulotlar ishlab chiqarilayotgan yuzlab, minglab zamonaviy korxonalar demakdir.

Vatanimiz mustaqilligi yildan-yilga an'ana va qadriyatlarimizni e'zozlash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, o'zligimizni anglash, dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashdek ezgu maqsadimizning amalga oshishida ulkan imkoniyatlarni yaratib kelmoqda.

Mustaqillik biz uchun erkin va ozod hayot, mardlik va matonat timsoliga aylandi. Istiqlolni asrash, tinch va osuda hayotimizni himoya qilish, farzandlarimizni dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan, har tomonlama barkamol etib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari xalqimizni yuksak intilishlar sari chorlab kelmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning g'oyalari, tashabbuslari va bevosita rahnamoligi ostida barcha sohalarda o'tkazilayotgan samarali islohotlar, dastur va rejalar, amaliy sa'y-harakatlar avvalambor, inson uchun, uning manfaatlari, farovon va baxtli hayoti, xavfsizligi va orzu-umidlarini ro'yobga chiqishiga qaratilmoqda. Biz nimaniki rejalashtirmaylik, nimaniki amalga oshirmaylik, nimagaki intilmaylik – barchasining bosh maqsadi inson va uning farovon hayotini ta'minlash bo'lib qolmoqda.

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishni o'ziga dasturilamal qilib olgan xalqimiz o'z milliy, tarixiy, ma'naviy va diniy an'analari, urf-odatlarini e'zozlab, ayni paytda dunyodagi eng ilg'or tajribalarni o'rganib bormoqda. Nega deganda, biz buyuk davlat va millat vorislarimiz, shunga munosib tarzda ilg'or davlatlar qatoridan mustahkam o'rin ham olib ulgurdik.

Hozirgi jarayonda mamlakatimiz hayotining biror-bir jabhasi yo'qki, unda mustaqillikning o'рни, ahamiyati va shukhi sezilmasa, jamiyatimizning biror-bir a'zosi yo'qki, o'z hayotida istiqlolning ijobiy samarasi, hayotbaxsh ta'sirini sezmagan bo'lsa. Binobarin, mustaqillik biz uchun tinch va farovon hayot, xalqaro maydonda esa nufuz va e'tiborning bosh mezoniga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining o'n to'qqiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori xalqimiz bosib o'tgan yo'lning naqadar buyukligi, amalga oshirilayotgan umummilliy dastur va rejalarning benihoya serqirraligini ko'rsatmoqda.

Ushbu qarorning mazmun-mohiyati, ahamiyati va nufuzi uning quyidagi bandlarida o'z aksini topgan:

- ❖ "O'tgan o'n to'qqiz yillik mustaqil taraqqiyot yo'li O'zbekistonimiz uchun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va ma'naviyat, sud-huquq tizimi, tashqi siyosat va xavfsizlikni ta'minlash borasida rivojlanish va yuksalish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash davri bo'lganini chuqur ochib berish;

- ❖ mustaqillik yillarida erishgan eng katta boyligimiz – xalqimizning tinch va osuda hayoti, jamiyatimizdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un bo'lib yashash tamoyili tobora mustahkamlanib borayotganini targ'ib etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

- ❖ shu o'tgan davrda betakror merosimiz, boy tariximiz, dinu diyonatimiz, urf-odat va an'alarimizning qayta tiklangani, odamlarimizning dunyoqarashi

tubdan o'zgarib, Vatan taqdiri va istiqboliga daxldorlik tuyg'usi ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylanib borayotganini har tomonlama ochib berish;

❖ istiqlol xalqimiz uchun yangi-yangi imkoniyatlar tug'dirib berayotganini, har bir yurtdoshimizning o'z iste'dod va qobiliyatini namoyon etishi, mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etishning mustahkam zamini bo'lib kelayotganini o'tkaziladigan barcha tadbirlarning ma'no-mazmuniga teran singdirish;

❖ biz tanlab olgan milliy taraqqiyot yo'li asosida yurtimizda keng ko'lamli islohotlar yangi bosqichda davom ettirilayotgani, O'zbekistonning jahon moliyaviy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning o'sish sur'atlari, aholining hayot darajasini barqaror saqlab qolish borasida erishayotgan amaliy natijalari, taraqqiyotning o'zbek modeliga xos ustuvor tamoyillar dunyo jamoatchiligi tomonidan keng e'tirof etilayotganiga alohida e'tibor qaratish;

❖ mamlakatimizda qabul qilingan muhim ijtimoiy dasturlar, jumladan, "Barkamol avlod yili" Davlat dasturining ijobiy samaralarini, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, ularning ham ma'naviy, ham jismoniy sog'lom bo'lib kamol topayotganini aniq va ta'sirchan hayotiy misollar yordamida yoritib berish"¹¹.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'n to'qqiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi PQ-1358-sonli qarori. Xalq so'zi, 2010 yil 1 iyul.

1.2.Kim edigu kim bo'ldik? Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?

Istiqlol yillarida O'zbekistonda milliy mentalitetga xos va mos holda, milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Hayotning o'zi o'rta qo'yayotgan savollarga evolyutsion (tadrijiy) yo'l bilan javob topmoqdamiz.

Bundan bir necha yil avval matbuotda bosilgan MDH tashkil etilganligining 20 yilligiga bag'ishlab muzey ochilgani to'g'risidagi xabar diqqatimini tortgan edi. Xabarda “muzeyga MDH tashkil etilishi borasidagi hujjat yozilgan mashinka ham qo'yilgani” ta'kidlanadi. Bundan 24 yil oldin “ittifoqdosh respublikalar” rahbarlarida ham kompyuter o'rniga mashinkadan foydalanilgan. (O'tgan asrning 80 yillarida amerikalik yozuvchi Ayzek Azimov o'z asarlarini kompyuterda yozishi hech kimga sir emas edi). Endi taqqoslang. Hozir mustaqil O'zbekistondagi har bir idora, muassasa va vazirlik to'la kompyuterlashgan. Tahlilchilarning fikricha, Internet va uyali telefondan foydalanuvchilar soni bo'yicha O'zbekiston MDH mamlakatlarida oldingi o'rinlarni egallamoqda. Istiqlol yillarida taraqqiyot shu qadar rivojlanib ketdiki, ayrim oilalar, hatto kompyuterni ortiqcha matoh deb noutbuk, netbuk, smartfonlardan foydalanishni afzal ko'rishmoqda. Hujjatlarni mashinkada ko'chirib, uni tasdiqlatish uchun qanchadan qancha vaqt sarflanardi. Xorij mamlakatlarida nusxa ko'chiruvchi apparatlar 60-yillardayoq ishlatilardi. Hozirgi avlodga mana shu kabi oddiy misollarni aytsangiz, “cho'pchak aytayapsiz”, deya bu gaplarimizga ishonishmaydi. Mahalliyashtirish dasturining hayotga tatbiq etilishi natijasida maishiy texnika mahsulotlarining hammasi – konditsioner, televizor, radio, kompyuter, mobil telefonlari, planshet, changyutgich, dazmol, kir yuvish mashinalari- o'zimizda “O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” tamg'asi ostida ishlab chiqarilmoqda, hatto xorijga eksport qilinmoqda. Asakada yengil avtomobillar, Samarqandda yuk mashinalari, avtobuslar ishlab chiqarilmoqda.

Uyingizga telefon tushirish azobning o'zi edi. Necha yillab navbat kutardingiz. Endi esa uyga telefon tushirishga ham hojat qolmadi. Oila a'zolarimizning hammasi qo'l telefoniga ega.

O'quvchilik yillarida o'zaro suhbatlarda mustaqillik haqida gapirib qolardik. Kimdir, "bir uxlab turib, mustaqil davlatda uyg'onsam" desa, kimdir "mustaqillikni o'z ko'zim bilan ko'rsam" derdi. Baxtimiz bor ekan, mustaqillik bizning davrimizda e'lon qilindi. O'zligini va milliy qadriyatlarini unutmagan xalqimiz istiqlol yillarida Islom Karimov rahnamoligida murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi... Mamlakatimizda demokratik davlat, fuqorolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiyotimizni bozor munosabatlariga o'tkazish va rivojlangan davlatlar qatoridan munosib joy olish yo'lida erishgan marralarimiz jahon ahlini haqli ravishda xayratda qoldirmoqda. Mustaqillikni mustahkamlashga zarracha bo'lsa-da hissa qo'shayoganimiz bizning avlod taqdiri va baxtidir.

Bugun xalqimiz bashariyat sivilizatsiyasiga, ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarining munosib vorisi, boy tarix va madaniy meros sohibi sifatida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda katta yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Demokratiya, maxalliy o'z-o'zini boshqarishni har taraflama rivojlantirish, tashabbusni, tadbirkorlikni rag'batlantirish va qonunlarga itoat etishni mustahkamlash, huquqiy madaniyatni yuksaltirish mustaqillikning eng katta yutuqlaridan bo'ldi. Toshkentda o'tayotgan turli xalqaro anjumanlar, yevropaning bir qator davlatlarida O'zbekiston rahbariyatining tashabbuslariga bag'ishlab o'tkazilgan anjumanlar xalqaro ekspertlarning diqqat markazida bo'lishining o'ziyoq jahon hamjamiyati O'zbekistonni salohiyatiga tan berganini ko'rsatib turibdi.

Urushlar nimalarga sabab bo'lishini qo'shni Afg'oniston misolida ko'rish mumkin. Bu mamlakatda 35 yildan beri qon to'kilmoqda. O'sha yilda tug'ilgan bola bugun bir necha farzandning otasiga aylandi. Uning bolalari qo'lda qurol bilan tug'ildi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Ularning qo'lidagi o'q otar qurollarni olib, o'rniga mehnat qurollarni berish uchun ancha ish qilinishi kerak. Urush qadimiy

sivilizatsiya beshiklaridan biri bo'lgan Afg'onistonni xarob qildi. Bugungi kunda Afg'oniston jahondagi eng qoloq va qashshoq mamlakat sifatida tan olinadi.

Bundan bir necha yil avval Gollivud tomonidan suratga olingan “Slyozy Buddy”(“Buddaning koʻz yoshlari”) deb nomlangan filmni tomosha qilgan edim. Bu film oʻzbekchaga tarjima qilingan yoki qilinmaganini bilmayman. Agar qilinmagan boʻlsa, tarjima qilib namoyish etish kerak deb oʻylayman. Bu filmda maktabga borish ishtiyoqida boʻlgan qizaloq haqida hikoya qilinadi. U oʻqish maqsadida uydagi tuxumlarni, tovuqlarni sotib daftar-qalam xarid qiladi. Ammo bozordan uyga qaytar ekan, yoʻlda urush-urush oʻynayotgan bolalar qizning daftar-qalamlarini olib qoʻyishadi. Mana shu jihatlari bilan film ishonarli suratga olinganki, bugungi Afgʻonistondagi hayotni toʻlaligicha namoyish qiladi. Bu filmni koʻrib, ota-bobolarimiz, momolarimiz qoʻllarini duoga ochganlarida “tinchlik-xotirjamlik boʻlsin” deya tilak bildirishlari bejiz emasliklarini anglaymiz.

“SHarq mash’ali” deb ta’riflanmish mamlakatimizda istiqlol yillarida betimsol bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Ulkan inshootlar, ravon yo’llar, ko’priklar, go’zal hiyobonlar, zamonaviy ta’lim muassasalari, bog’ va bog’chalar, yangi qishloqlar bunyod etildi. YUrtimizning turli go’shalarida amalga oshirilayotgan bunday olamshumul o’zgarishlarda taraqqiyot, farovonlik sari qat’iyat bilan intilayotgan xalqimizning qalb qo’ri, bunyodkorlik salohiyati, ertangi kunga bo’lgan mustahkam ishonchi namoyon bo’layotir.

24 yillik tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk yillarda qiyinchiliklar bo'lganini tan olish kerak. Chunki bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish jarayoni oson emas. Tashqi kuchlar O'zbekiston ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashmoqchi bo'ldi. Turli diniy oqimlar, ekstremistik, terrorchi guruhlarining yurtimizga suqilib kirishi xalqimizning farovon turmush sari tashlagan qadamlarini to'xtatib qololmadi. Mustaqillik arafasi va ilk yillaridagi fojealar, terror harakatlari, undan keyingi ko'ngilsiz voqealar xalqimiz uchun katta sinov bo'lishi bilan bir qatorda o'zbekistonliklarni jipslashtirishga xizmat qildi. Bir so'z bilan aytganda, yurtboshimiz rahnamoligida O'zbekiston xalqi vatanimizning terrorchi va

ekstremistlar nayzalari ostida qolishiga yo'l qo'yilmadi. Agar haqiqat nuqtai nazaridan baho beriladigan bo'lsa, xolis kuzatuvchi O'zbekistonda mustaqillik yillari haqiqiy taraqqiyot bo'lganini tan oladi. Ham to'g'ri, ham ko'chma ma'noda gapiradigan bo'lsak mustaqillikning ilk yillarida biz yurishimiz kerak bo'lgan yo'l yo'q edi. SHoir "ucharga har qushdan pat so'ramadim" deb yozganidek, ayrim davlatlarga o'xshab tashqi yordamga ko'z tikib o'tirmadik. "Qarz olish oson, bu hammamizga ma'lum, lekin bir kun kelib to'lash ham kerak. Biz faqatgina bugungi kunni emas, balki ertamizni, kelajak avlodlarni ham o'ylashimiz kerak. Biz hozir xato qilib qo'ysak, farzandlarimiz kelajakda qoqilib qolishini hisobga olmasak, bu katta gunoh bo'ladi", deb yozdi keyinchalik mamlakatimiz rahbari.

O'zbekistonning o'z yo'lini ishlab chiqish uchun ko'p ter to'kildi. Tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt yo'qligi anglab yetilgan xolda ana shu yo'l ishlab chiqildi. Buning natijasi o'laroq olg'a tashlangan qadamdan aslo chekinmadik. To'g'risi chekinishni, erishilgan marralarni qo'ldan boy berish hayolga kelmadi. Tanlagan yo'limiz to'g'riligiga hech kim shubha qilmadi. Mana shu qisqa muddat ichida katta vazifalar hal qilinar ekan, muvaffaqiyatsizliklarga yo'l qo'yib bo'lmasdi. O'zbekistonliklar bir tan, bir jon bo'lib yo'lda uchragan har qanday to'siqlarni bartaraf etishar ekan, mustaqillikni mustahkamlash ishiga katta hissa qo'shdilar. Balki chet elliklar uchun "Afrosiyob", "Toshkent-Samarqand", "Toshkent-Buxoro", "Toshkent-Qarshi" tez yurar poyezdlarining qatnovi, Qamchiq davoni, "Toshguzor-Qumqo'rg'on-Boysun", Qizilqumni qoq o'rtasidan kesib o'tgan Nukusgacha boruvchi temir yo'llarining qurilishi, poytaxtimiz Toshkentning butunlay yangi qiyofaga kirishi odatiy xol bo'lishi mumkin. Lekin bu MUSTAQILLIK deb atalmish daraxtning mevalaridir.

AQSH Prezidenti Barak Obamaning 2009 yil 4 iyun kuni Qohira Universitetida so'zlagan nutqini ko'p eslayman va ko'p uchrashuvlarda aytib yuraman. Oq uy rahbari o'shanda shunday degan edi: "Tarixga qiziqqan inson sifatida men sivilizatsiya islom oldida qanchalik qarzdor ekanligini ham bilaman. Aynan islom, Al-Azhor kabi joylarda, asrlar davomida ilm nurini taratib keldi va yevropadagi

tiklanish va ma'rifatga yo'l ochdi. Musulmon jamiyatlarining ilg'orlik ruhi tufayli algebra tartib-qoidalar, magnitli kompass va navigatsiya uskunalar, yozuv mahorati va nashriyotga ega bo'ldik, kasalliklar tarqalishi va ularni davolash yo'llari haqida tushuncha hosil qildik. Islom tamadduni bizga ulug'vor arkalar va baland minoralar, vaqt hukmiga bo'ysunmaydigan she'riyat va jozibali musiqa, husni hattotlik va huzur-halovat ila taffakur qilish imkonlarini berdi", degan edi. Bu nutq bilan tanishar ekansiz, AQSH prezidenti o'zbek mutafakkirlarini nazarda (algebra tartib-qoidalar deganda Al Xorazmiyni, magnitli kompass deganda Abu Rayxon Beruniyni, navigatsiya uskunalar deganda al Farg'oniyni, kasalliklar tarqalishi va ularni davolash yo'llari deyilganda Ar-Roziy va Ibn Sino) tutganligiga ishonch hosil qilasiz. Ulug'vor arkalar va baland minoralar (Samarqand, Buxoro, Xiva, SHahrisabz), vaqt hukmiga bo'ysunmaydigan she'riyat (A. Navoiy, Z.Bobur) va jozibali musiqa (Al Farobiy) deyish bilan Barak Obama O'zbekistonni nazarda tutmadimikan?!. Demak AQSH prezidenti fikricha, "sivilizatsiya islom oldida qanchalik qarzdor" bo'lsa, xalqimiz oldida ham shunchalik qarzdordir.

Ispaniya qirolining elchisi R.G.Klavixo "Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayyohat kundaligi" asarida quyidagi gaplarni yozib qoldirgan. "Bu xalq bilan shox (ya'ni Amir Temur) ko'plab ulug'vor jasoratlar ko'rsatdi, ko'plab g'alabalar qozondi. Bu mehnatsevar, mohir chavandoz kamondan otuvchi mergan, umuman sabot-matonatli xalq. Issiq va sovuqqa, ochlik va tashnalikka jahondagi har qanday eldan ko'ra sabotli va chidamli xalq". ("San'at"jurnali 1990-yil № 5). Bir paytlar Amir Temur boshchiligida shon-shuhrat qozongan halq bugun yana azaliy dovrug'ini qayta tiklayotir.

Bugungi kunda prezident Islom Karimov olib borayotgan to'g'ri va oqilona siyosat tufayli mamlakatimiz o'zining qadimiy obro'sini qayta tikladi. Prezidentimizning "O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" kitobidagi: "O'zining milliy davlat manfaatlari ustivorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olib, respublika biror bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga kirmasligi darkor", degan fikrlari bugungi kunda amaliy ifodasini topmoqda.

O'zbekistondagi muvaffaqiyatlarning hammasi mangulikka qo'yilgan HAYKALdir. Bularning hammasi xalqimizning qadoq qo'llari bilan bunyod qilindi. Eng ulug'vor haykal qo'yildiki, shoir iborasi bilan aytganda "qo'l bilan tiklab bo'lmas haykal" deyish mumkin. Bu O'zbekiston Istiqlolining e'lon qilinishidir.

Mustaqil bo'ldik. o'z haqiqiy Ona Vatanimiz mehri tezda sezildi. Xalqimizning o'rtacha umri 1990 yildagi 67 yoshga nisbatan 73,5 yoshga ortdi. Onalar o'limi 3,1 martaga, go'daklar o'limi 3,2 martaga kamaydi. "Save the Children" xalqaro tashkiloti reytingiga ko'ra, O'zbekiston dunyodai bolalar salomatligi to'g'risida eng ko'p g'amxo'rlik qiladigan o'nta mamlakat qatoridan joy oldi¹². Bu "Biz kim edik" degan savolga yana bir alamli javob.

Avvallari xaridor do'konchining ortidan "ko'ylak, tufli, kastyum, shim topib ber" yalinardi. Do'konlarimiz, bozorlarimiz to'kin-sochinlikning yorqin namunasi bo'lib, ularda "qora ikra, qizil ikra, chet el baqlajon ikrasigacha" topiladi. Mustaqillikka qadar "Non do'koni"da 2 xil buxanka – oq va qora non sotilardi. Hozir esa oddiy do'konga kirsangiz kamida 10 xil non mahsulotini xarid qilishingiz mumkin. Maxsus do'konda esa non turlari 20dan ortadi. "Qo'qon noni", "Samarqand noni", umuman respublikamiz mintaqalarining nonlarini bimalol topishingiz mumkin.

"SHarq mash'ali" deb ta'riflanmish mamlakatimizda istiqlol yillarida betimsol bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Ulkan inshootlar, ravon yo'llar, ko'priklar, go'zal hiyobonlar, zamonaviy ta'lim muassasalari, bog' va bog'chalar, yangi qishloqlar bunyod etildi. YUrtimizning turli go'shalarida amalga oshirilayotgan bunday olamshumul o'zgarishlarda taraqqiyot, farovonlik sari qat'iyat bilan intilayotgan xalqimizning qalb qo'ri, bunyodkorlik salohiyati, ertangi kunga bo'lgan mustahkam ishonchi namoyon bo'layotir.

Yigirma to'rt yillik tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk yillarda qiyinchiliklar bo'lganini tan olish kerak. CHunki bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish jarayoni oson emas. Tashqi kuchlar O'zbekiston ichki ishlariga

¹² Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim – O'zbekistonim!. O'zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligining 24 yilligi munosabati bilan nashr etilgan uslubiy qo'llanma. T.: Ma'naviyat, 2015. -B.10.

qo'pol ravishda aralashmoqchi bo'ldi. Turli diniy oqimlar, ekstremistik, terrorchi guruhlarining yurtimizga suqilib kirishi xalqimizning farovon turmush sari tashlagan qadamlarini to'xtatib qololmadi. Mustaqillik arafasi va ilk yillaridagi fojealar, terror harakatlari, undan keyingi ko'ngilsiz voqealar xalqimiz uchun katta sinov bo'lishi bilan bir qatorda o'zbekistonliklarni jipslashtirishga xizmat qildi. Bir so'z bilan aytganda, yurtboshimiz rahnamoligida O'zbekiston xalqi vatanimizning terrorchi va ekstremistlar nayzalari ostida qolishiga yo'l qo'yilmadi. Agar haqiqat nuqtai nazaridan baho beriladigan bo'lsa, xolis kuzatuvchi O'zbekistonda mustaqillik yillari haqiqiy taraqqiyot bo'lganini tan oladi. Ham to'g'ri, ham ko'chma ma'noda gapiradigan bo'lsak mustaqillikning ilk yillarida biz yurishimiz kerak bo'lgan yo'l yo'q edi. SHoir "ucharga har qushdan pat so'ramadim" deb yozganidek, ayrim davlatlarga o'xshab tashqi yordamga ko'z tikib o'tirmadik. "Qarz olish oson, bu hammamizga ma'lum, lekin bir kun kelib to'lash ham kerak. Biz faqatgina bugungi kunni emas, balki ertamizni, kelajak avlodlarni ham o'ylashimiz kerak. Biz hozir xato qilib qo'ysak, farzandlarimiz kelajakda qoqilib qolishini hisobga olmasak, bu katta gunoh bo'ladi", deb yozdi keyinchalik mamlakatimiz rahbari.

O'zbekistonning o'z yo'lini ishlab chiqish uchun ko'p ter to'kildi. Tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt yo'qligi anglab yetilgan xolda ana shu yo'l ishlab chiqildi. Buning natijasi o'laroq olg'a tashlangan qadamdan aslo chekinmadik. To'g'risi chekinishni, erishilgan marralarni qo'ldan boy berish hayolga kelmadi. Tanlagan yo'limiz to'g'riligiga hech kim shubha qilmadi. Mana shu qisqa muddat ichida katta vazifalar hal qilinar ekan, muvaffaqiyatsizliklarga yo'l qo'yib bo'lmasdi. O'zbekistonliklar bir tan, bir jon bo'lib yo'lda uchragan har qanday to'siqlarni bartaraf etishar ekan, mustaqillikni mustahkamlash ishiga katta hissa qo'shdilar. Balki chet elliklar uchun "Afrosiyob", "Toshkent-Samarqand", "Toshkent-Buxoro", "Toshkent-Qarshi" tez yurar poyezdlarining qatnovi, Qamchiq davoni, "Toshguzor-Qumqo'rg'on-Boysun", Qizilqumni qoq o'rtasidan kesib o'tgan Nukusgacha boruvchi temir yo'llarining qurilishi, poytaxtimiz Toshkentning butunlay yangi

qiyofaga kirishi odatiy xol bo'lishi mumkin. Lekin bu MUSTAQILLIK deb atalmish daraxtning mevalaridir.

1.3. “O‘zbek modeli” – yorug‘ istiqbolimizni belgilab bergan taraqqiyot yo‘li

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan har bir davlat uchun eng asosiy, bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqillikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratish hisoblanadi. Bu masalaga mustaqillikka erishgan barcha mamlakatlar turli davrlarda duch kelishgan va ular bu masalani turlicha hal etishgan. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy taraqqiyotning «Shved modeli», «Amerika modeli», «Yapon modeli» kabi tushunchalar ishlatila boshlandi. Ushbu tushunchalar negizida muayyan mintqa yoki mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida siyosiy-iqtisodiy islohotlarni qaysi yo‘l bilan, qay yo‘sinda amalga oshirilishi bilan bir-biridan farqlanadi.

Masalan, «Amerika modeli»da bozor munosabatlari nihoyatda liberalligi bilan xarakterlansa, «Yapon modeli» iqtisodiy munosabatlarda davlatning yetakchi o‘rni bilan belgilanadi. «Shved modeli»da iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘naltirilganligi ustuvordir.

Shuningdek, Sharqiy yevropa mamlakatlarining o‘z modeli bor, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridagi modellar ham o‘ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

O‘zbekiston mamlakatimizda o‘z mustaqilligiga erishgach, milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqil taraqqiyot yo‘lini belgilab olish maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur o‘rganib, mamlakatimizning tarixiy-milliy xususiyatlari va geografik-demografik shart-sharoitlariga mos bo‘lgan o‘ziga xos modelni yaratish zarur edi. Sobiq totalitar tuzumdan juda ko‘plab iqtisodiy, ijtimoiy muammolar meros bo‘lib o‘tganligiga qaramasdan, respublika rahbariyati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz taraqqiyotining o‘ziga xos yo‘lini aniq belgilab oldi.

Bu yo'ldagi dastlabki eng asosiy vazifa: «Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatish, shuningdek, yangi davlatchilikning siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish»¹³ edi.

O'zbek davlatchiligining o'ziga xos milliy xususiyatlaridan biri bo'lgan, davlatchilik taraqqiyotining inqilobiy sakrashlarni chetlab, tadrijiy tarzda takomillashib borganligini Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlari bilan asoslashimiz maqsadga muvofiqdir: «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. YA'ni, sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb atashganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi»¹⁴ degan fikrlarning naqadar asosli ekanligini ijtimoiy taraqqiyot ham ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan hozirgi davrda ma'muriy buyruqbozlikdan iborat totalitar tuzumdan meros bo'lib qolgan ma'naviy inqirozga chek qo'yib, kishilar dunyoqarashini milliy mafkura asosida qayta shakllantirish kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifa hisoblanadi. Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan insongina milliy istiqlol vazifalarini to'la anglab yetib, kelajak tomon komil ishonch bilan bora oladi.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li bo'lgan «O'zbek modeli» mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot dasturi bo'lib, bu dastur ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning g'oyaviy-nazariy negizini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida bir nechta bosqichda islohotlar olib borilib, islohotlarning dastlabki bosqichida eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tugatildi hamda milliy davlatchilikning siyosiy-huquqiy poydevori barpo etildi. Keyingi bosqichda

¹³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T. O'zbekiston, 1997. 152-bet.

¹⁴ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari -T.: O'zbekiston. 1995. 10-11 betlar.

ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning huquqiy asosi yaratildi, iqtisodiyotning barqarorlashuviga erishildi. Islohotlarning navbatdagi bosqichida davlatimiz rahbari I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli dasturiy asarida belgilab berilgan olti ustuvor vazifalar amalga oshirila boshlandi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat edi:

- Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish;

- Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish;

- Jamiyatimiz kelajagini belgilab beruvchi kadrlar siyosati;

- Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish;

- Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash;

- Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz dahlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash;¹⁵

O'zbek modelining asoschisi Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilayotgan taraqqiyot yo'lining ko'pchilik boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma'nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modeli hamdir. SHuning uchun ham u iqtisodiyot bilan bir qatorda davlat qurilishi, ijtimoiy soha va ma'naviyatni, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Jahon iqtisodiyoti ulkan sinovlarga duch kelayotgani haqidagi ma'lumotlardan deyarli har kuni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor bo'lib turibmiz. Misol uchun, iqtisodiy o'sishning lokomotivi hisoblanadigan iste'mol talabining, ayniqsa, xom ashyo resurslariga bo'lgan ehtiyojning keskin pasayib borayotgani global moliyaviy iqtisodiy inqiroz nainki davom etayotgani, hatto chuqurlashayotganining isbotidir. Ana shunday murakkab sharoitda O'zbekistonda erishilayotgan natijalar esa jahon hamjamiyatining qiziqishi yanada oshishiga sabab bo'layapti.

¹⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston. 1999. 15-19 betlar.

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida alohida ta'kidlaganidek, "O'zbekiston sobiq ittifoq tarkibida, asosan, paxta xom ashyosi yetkazib beradigan, salohiyati past, aholisining hayot darajasi eng qoloq respublikalardan biri bo'lib, tarixan qisqa davrda barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgan, ko'p qirrali iqtisodiyotga ega bo'lgan zamonaviy davlatga aylangani barcha-barcha kuzatuvchilarni hayratda qoldirishi bugun ob'ektiv holatdir"¹⁶.

Darhaqiqat, mustaqil rivojlanish yillarida mamlakatimiz iqtisodiyoti qariyb 6 barobar o'sganligi, oxirgi 11 yilda yalpi ichki mahsulot hajmining oshishi barqaror ravishda 8 foizdan yuqori bo'lib kelayotgani diqqatga sazovor. SHu bilan birga, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mutanosibligi, davlat byudjeti va to'lov balansining barqaror ravishda profitsit bilan bajarilishi, eksport hamda oltin-valyuta zaxiralarining o'sishi ta'minlanmoqda. Dunyoda taraqqiyotning "o'zbek modeli" deb tan olingan dastur ushbu muvaffaqiyatlarning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilayapti, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha puxta o'ylangan, uzoq muddatga mo'ljallangan ushbu hayotiy dasturga muvofiq, olib borilayotgan izchil islohotlar, sanoat tarmoqlarini taraqqiy ettirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalarni ishga tushirish, qisqacha aytganda, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz raqobatdoshligini mustahkamlash imkonini berayapti.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2016 yil mamlakatimizda "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilindi. Zero, sog'lom bola, sog'lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan azaliy qadriyatdir. Ana shular hisobga olingan holda, 2016 yilda barkamol avlodni voyaga yetkazish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni

¹⁶ Karimov I. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2015, 7-dekabr.

kengaytirish bo'yicha ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilishi tabiiy. Avvalo, xotin-qizlarimiz uchun ijtimoiy, maishiy, tibbiy nuqtai nazardan zarur sharoitlarni yaratish, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini barpo etish, aholini toza ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta'minlash, tibbiyot muassasalari, jumladan, joylarda faoliyat ko'rsatayotgan perinatal markazlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kabi ezgu ishlar ro'yobga chiqarilishiga ishonchimiz komil.

Muxtasar aytganda, istiqlolimizning chorak asri nishonlanadigan 2016 yilda xalqimiz oldida boshlangan islohotlarni izchil davom ettirib, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yuqori natijalarga erishish, yangi marralarni zabt etishdek ulug' vazifalar turibdi. Zotan, mustaqillik bergan beqiyos imkoniyat — ozod va erkin, demokratik davlat hamda farovon jamiyat qurish uchun xalqimizning aql-zakovati va azmu shijoati yetarlidir.

I.A. Karimov “O'zbekiston - bozor munosabatlariga utishning uziga xos yuli” risolasida mamlakat mustakillikka erishgandan sung dastlabki yillardagi rivojlanish jarayonlarini taxlil kilib, O'zbekistonda davlat kurilishi va iktisodiyotni islox kilish dasturining uzagi sifatida 5 ta asosiy tamoyilni belgilab berdilar. Nazariy va amaliy jixatdan puxta ishlab chikilgan bu dastur yashab turgan fukarolarning takdirigina emas, balki ularning kelajak avlodlarining takdirini xam uylab tuzilgan bulib, usha davrda xukmron bulgan yakka xokimlik tizimining illatlarini tezrok bartaraf etish, mamlakatimizni rivojlangan, madaniyatli mamlakatlar darajasiga chikib olishini ta'minlashni kuzda tutgan edi. Bu xakikatan xam Prezidentimiz nomi bilan jaxonga tanilgan **tarakkiyotning “O'zbek modeli” edi.**

Tarakkiyotning O'zbek modeli kuyidagi tamoyillarga asoslanadi: **birinchidan**, iktisodiy isloxotlar xech kachon siyosat ortida kolmasligi kerak, ya'ni iktisodiyot siyosatdan ustun bulishi kerak. SHuningdek, ichki, tashki va iktisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli etishni ta'minlash zarur;

ikkinchidan, utish davrida davlat asosiy isloxotchi bulishi lozim. U isloxotlarning ustuvor yunalishlarini belgilab berishi, uzgarishlar siyosatini ishlab chikishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi shart;

uchinchidan, konun ustuvorligiga erishish, konunlarga kat'iy rioya etish lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yul bilan kabul kilingan yangi Konstitutsiya va konunlarni barcha xech istisnosiz xurmat kilishi va ularga ogishmay rioya etishi lozim;

turtinchidan, axolining demografik tarkibini xisobga olgan xolda kuchli ijtimoiy siyosat utkazish kerak. Axolining salkam 50 foizini 16 yoshga yetmagan bolalar tashkil etadigan O'zbekistonda buning aloxida axamiyati bor;

beshinchidan, bozor iktisodiyotiga utish iktisodiyotning ob'ektiv konunlarini e'tiborga olib, yakin utmishdagi "inkilobiy sakrashlar"siz, ya'ni evolyutsion yul bilan puxta uylab, boskichma-boskich amalga oshirilishi kerak.

Bozor iktisodiyotini shakllantirishning evolyutsiya yulining tanlab olinganligi uzining an'anaviy ogir-bosikligi, puxta uylab karor kabul kilishga ruxan moyilligi xamda tinchliksevarligi tufayli bir xolatdan ikkinchisiga, ayniksa turmush tarzida, sakrab utishga ragbati yuk O'zbek xalkining fikrlash tarziga aynan mosdir.

YAna shu narsa xam goyat muximdirki, bozor tarakkiyotining boskichli jarayoni davlatning tub ijtimoiy-iktisodiy uzgarishlarni axillik vaziyatida, jamiyatning kullab-kuvvatlashiga tayanib amalga oshirish imkonini beradi.

Isloxotlarning O'zbek modeli bundan oldin yaratilgan va mavjud bulgan modellarning birortasini takrorlamagan xolda, uz moxiyati va mazmuni jixatidan butunlay yangi tarakkiyot modeli buldi.

Birinchi tamoyil. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosatdan ortda qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli bo'lishi lozim. Ma'lumki, sho'rolar davrida barcha sohalar – iqtisodiyot ham, siyosat ham kommu-nistik mafkuraga bo'ysundirilgan edi.

Davlat mulkidan tashqari jamoat mulki va shaxsiy mulk ham mavjud deb ta'kidlansada, ular totalitar tuzum siyosati va komunistik mafkura belgilab bergan doiradagi mulklar edi xolos. Mustaqillik sharoitida esa mulk shakllarini rang-baranglashtirish zarur. SHuning uchun ham ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllan-tirish, odamlarda mulkka egalik tuyg'usini uyg'otish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarib, xususiylashtirish orqali teng huquqli, raqo-batda ishlaydigan iqtisodiyotni shakllantirish vazifasi qo'yildi.

SHuni qayd etish lozimki, iqtisodiyotni xususiylashtirish butun jamiyat va har bir kishining hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsata-digan, ko'p hollarda turli to'qnashuvlarni, davlat to'ntarishlarini keltirib chiqaradigan holdir. I. Karimovning ulkan xizmatlari shundaki, u mana shunday falokat (kataklizm)larning kelib chiqmas-ligi uchun, islohotlarni aholining demografik, ijtimoiy psixolo-gik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich amalga oshirish siyosatini yuritdi. SHu bois ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish uch bosqichni o'z ichiga oladi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, davlat mulkini shoshma-shosharlik bilan xususiylashtirishga, o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'yish mumkin emas. Xususiylashtirish jarayoni maxsus dasturlar asosida, davlatning qattiq nazorati ostida amalga oshiri-lishi lozim. Davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashti-riladigan korxonalar o'tish davrining har bir bosqich vazifalari-dan kelib chiqqan holda aniqlanishi kerak. Uy-joy fondini, mai-shiy xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish, qishloq-xo'jali-gi, mahalliy va yengil sanoat korxonalari hamda tashkilotlarini xususiylashtirish birinchi navbatdagi amalga oshiriladigan chora-tadbirlar jumlasiga kiradi. Boshqa tarmoqdagi korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish ishlari asosan hissadorlik, korxonalar-ni mulkchilikning jamoat shakliga o'tkazish prinsiplari bo'yicha amalga oshiriladi.

Xullas, bu islohotlarni amalga oshirishda ko'zlangan maqsad odamlarga «iqtisodiy faoliyat uchun erkin sharoit tug'dirib berish» orqali xalq farovonligini oshirishdir. Biz shuni anglab yetayapmiz-ki, odamlar iqtisodiy munosabatlarda erkin bo'lmay turib, davlat va jamiyat hayotida faol qatnasha olmaydilar.

Kambag'al, bir burda nonga, ishga muhtoj odam o'z yurti, o'z davlati uchun qayg'urmaydi. Badavlat yashash uyat emas, balki shaxsning ijodiy kuchlarini to'liq ro'yobga chiqarish shartidir.

Ikkinchi tamoyil. Davlat – bosh islohotchi. U islohotlarni ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim. Jahon tajribasi iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish zarurligidan dalolat bermoqda. Tom ma'noda o'zini o'zi tartibga solib turadigan bozor bo'lmaydi.

Davlat alohida mavqega ko'ra hamma davrlarda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir o'tkazib kelgan. Mustabid tuzum asoratlaridan xolos bo'lish jarayonida o'zini o'zi tartibga soladigan yetuk rivojlangan iqtisodiy mexanizm birdaniga vujudga kelib qolmaydi. SHu boisdan ma'muriy buyruqbozlikka markazlashgan iqtisodiyotga asoslangan tuzum ziddiyat va qarshiliklarni yengib o'tish, yangi munosa-batlarni qaror toptirish uchun o'tish davri kerak ziddiyatlarga boy bo'lgan o'tish davri sharoitida iqtisodiyotni, islohotlarni o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi.

O'tish davrida xalq xo'jaligining, ayniqsa, uning asosini, tizimini belgilaydigan, tarmoqlarning faoliyatini qo'llab quvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi, soliq solish va qarz berishda imtiyozlar yaratishi, shuningdek, bevosita yordam ko'rsatish yo'li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishi lozim.

Bozor munosabatlari yo'liga o'tgan ko'pgina mamlakatlarning tajribasi davlat hamisha aholining ham, ishbilarmonlarning ham islohotlarga tayyorgarlik darajasini ko'rsatadi. Davlat ularni yangicha yashashga yo'llagan va rag'batlantirgan. SHu bilan bozor iqtisodiyotiga tezroq va qiyinchiliksiz o'tishga yordam bergan. Davlatning islohotchilik vazifasi - iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlarini va bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarini ishlab chiqishda tashabbuskor bo'lishdan iborat. Davlat iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda o'z organlari orqali ishtirok etadi. Eng muhimi, ularni bevosita amalga oshirish kerak. SHunday qilib, davlat islohot jarayonining markazida bo'lishi shart. CHunki, faqat davlatgina umummilliy iqtisodiy manfaatlarni mujassam ifodalashga va himoya

qilishga, aholining barcha kuchlarini o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun jipslashtirishga qodir.

Uchinchi tamoyil. Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi

Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qonunlarga itoat qilishda, uning ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan kishilar har doim oddiy fuqarolarga "etalon" bo'lishlari lozim. Ular tomonidan qonunlarning buzilishiga qaratilgan har bir kichik xatti-harakatlar nafaqat umumiy taraqqiyotga, shuningdek fuqarolarning hokimiyatga ishonchining barbod bo'lishiga olib keladi. SHu ma'noda ham qonun ustuvorligini ta'minlashda fuqarolarga qaraganda uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlar ko'proq, yetakchilik qilishlari talab etiladi. Qonunlarning har qanday shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoxud ijtimoiy tabaqalar manfaatlaridan ustun bo'lishini real ta'minlash orqaligina demokratiyani rivojlantirish, uning jamiyatda amal qilishiga erishish mumkin bo'ladi. Uning amal qilishi har ikkala hokimiyat va fuqaro manfaatlariga mos keladi.

Mazkur tamoyil jamiyat hayotida birdaniga to'liq qaror topib qolmaydi. U nisbatan uzoq muddat talab qiladigan, bosqichma-bosqich va doimiy rivojlanib boradigan jarayon. Uning to'liq qaror topishi uchun o'zaro mushtarak bo'lgan quyidagi uch omil muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi omil. Jamiyatning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan puxta va zaruratga qarab o'zgaruvchi qonunlar majmuasining vujudga kelishi, doimiy takomillashib borishi;

Ikkinchi omil. Jamiyat a'zolarining huquqiy savodxonligi darajasi va qonunga itoatgo'yligining yuqori darajada bo'lishi;

Uchinchi omil. Mavjud qonunlarni hayotga tatbiq etishning zarur iqtisodiy shart-sharoiti, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy mexanizmini yaratish.

To'rtinchi tamoyil. Respublika aholisining o'ziga xos ijtimoiy demografik, psixologik madaniy-tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan holda **kuchli ijtimoiy siyosat yuritishdan iborat.** Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni himoyalash yuzasidan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim.

Kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlari va yo'nalish-lari ko'p. Ular ijtimoiy ta'minot ya'ni ish o'rinlari yaratish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport sohalari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash va isloh qilishdan tortib, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni ta'min-lashgacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat orqali davlat kam ta'minlangan, ma'lum bir sabablarga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarda faol qatnasha olmaydigan yoki qatnashish imkoniyatlari cheklangan fuqarolarni o'z himoyasiga oladi. Ayniqsa, mulkiy munosabatlar keskinlashgan ya'ni mavjud ijtimoiy (davlat) mulklarni taqsimlashda nohaqliklar, aldash va g'irromliklarning avj olishi tufayli oddiy kishilar zarar ko'radilar, adolatsizlikka, huquq-haqsizlik va zo'ravonlikka almashadi va shunday holatlar oddiy hol bo'lib qoladi. Davlat idoralarida yuzaga kelgan ta'magirlik, korrupsiya oddiy odamlarni islohotlardan, davlat siyosatidan uzoqlashtiradi. SHuning uchun kuchli ijtimoiy siyosat moddiy yordamga muhtoj kishilarnigina emas, balki hammani davlat siyosatiga zid bo'lgan xatti-harakatlar-dan himoya qilish, barchaning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'min-lash, eng avvalo yordamga, himoyaga muhtoj kishilarni davlat himoya-siga olishdir.

O'zbekiston oilalariga ko'p bolalilik xos. Aholining 60 foizi qishloqlarda yashaydi, qishloqlarda esa ishlab chiqarish munosabat-lari va ijtimoiy-madaniy institutlar infrastrukturasini kam rivojlangan. Aholi sonining o'sishi esa asosan

qishloq aholisining hisobiga ro'y bermoqda. Demak, kuchli ijtimoiy siyosat ana shu joylarda yashayotgan aholini bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan sharoitida har tomonlama ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan himoya qilish, qo'llab-quvvatlashdir.

Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining turli qat-lamlarini ijtimoiy muhofaza qilish "o'zbek modeli"ning insonparvarlik mohiyatini belgilovchi tamoyillaridan biridir.

Beshinchi tamoyil. Islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish. Ushbu siyosatni amalga oshirishda «YAngi uy qurmay turib, eskisini buzma» degan qoidaga amal qilinadi.

Markazlashtirilgan tartibda rejalashtirish va boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik uslubida bozor iqtisodiyotiga o'tish – bu mavjud xo'jalik usulini yangilash yoki takomillashtirish emas, balki tamoman yangicha xo'jalik tizimini joriy etish. Bu bir sifat holatidan ikkinchisiga o'tish. Bu odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasidir. SHunga ko'ra, u bir vaqtning o'zida bo'ladigan tadbir sifatida amalga oshirilish mumkin emas, balki bir qancha bosqich-larni o'z ichiga oluvchi uzoq davrni talab etadi.

Faqat farmonlar va farmoyishlar chiqarish bilan bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun qonunlar qabul qilish, mulkchilikning barcha shakllari teng huquq-liligini e'lon qilishning o'zi yetarli emas. Bu qonunlarni ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan chinakam vositalar zarur. Bu vositalar birdaniga amal qilib ketmaydi. Ular asta-sekin takomillashib boradi va izga tushadi. Bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan ikkinchi-siga o'tish soxta inqilobiy sakrashlar bilan yuz berishi mumkin emas. Har bir inqilobiy qarorlar juda katta ijtimoiy larzalarni keltirib chiqaradi.

Bunga SHarqiy yevropa mamlakatlari tanlagan yo'lni misol qilib ko'rsatish mumkin. Bozor munosabatlariga o'tishda «shok tera-piyasi» (falaj qilib davolash) usulidan foydalanildi.

YUrtboshimiz xabarligida ijtimoiy yunaltirilgan bozor iktisodiyotiga asoslangan xukukiy demokratik davlat barpo etish va fukarolik jamiyatini shakllantirish maksadida goyat mashakkatli, shu bilan birga, sharaflı tarakkiyot yuli bosib utildi.

Mamlakatimiz iktisodiyotini islox kilish va yurtimizda ijtimoiy yunaltirilgan bozor iktisodiyotini shakllantirish asosida chukur tanazzuldan xalos bulib, barkaror tarakkiyot va axoli turmush farovonligiga erishishga karatilgan tub uzgartirishlar siyosatining strategik maksadlari I.A.Karimov tomonidan kuyidagicha izoxlab berildi:

- ijtimoiy yunaltirilgan bozor iktisodiyotini boskichma-boskich shakllantirish, kudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, kishilar xayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iktisodiy tizimni barpo etish;
- kup ukladli iktisodiyotni yaratish, insonning mulkdan maxrum bulishiga barxam berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bulgan xususiy mulkning davlat tomonidan ximoya kilinishini ta'minlash;
- korxonalar va fukarolarga keng iktisodiy erkinliklar berish, ularning xujalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iktisodiyotni boshkarishning ma'muriy-buyrukbozlik usullarini bartaraf etish, iktisodiy omillar va ragbatlantirish vositalaridan keng foydalanish;
- iktisodiyotda moddiy, tabiiy va mexnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chukur tarkibiy uzgarishlar kilish, rakobatdosh maxsulotlar ishlab chikarish, jaxon iktisodiy tizimiga kushilib borish;
- kishilarda yangicha iktisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyokarashini uzgartirish, xar bir kishiga uz mexnatini sarflash soxasi va shakllarini mustakil belgilash imkonini berish.

Mustakillikning ilk yillarida, ya'ni ijtimoiy yunaltirilgan bozor iktisodiyotiga utishning birinchi boskichida kuyidagi ikki vazifani birdaniga xal kilish maksad kilib kuyildi:

- totalitar tizimning ogir okibatlarini yengish, tanglikka barxam berish, iktisodiyotni barkarorlashtirish;

- respublikaning uziga xos sharoiti va xususiyatlarini xisobga olgan xolda, bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish;

Mazkur vazifalarni xal qilish uchun birinchi boskichda islox qilishning kuyidagi muxim yunalishlari aniklab olindi va amalga oshirildi:

- utish jarayonining xukukiy asoslarini shakllantirish, isloxotlarning konuniy-xukukiy negizini mustaxkamlash;

- maxalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat kursatish korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, kishlok xujaligi va xalk xujaligining boshka soxalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

- ishlab chikarishning pasayib borishiga barxam berish, moliyaviy axvolning barkarorlashuvini ta'minlash.

Respublikada bozor munosabatlariga utishning birinchi boskichida iktisodiyot va ijtimoiy soxada yuz bergan tub uzgarishlar uning uz tarakkiyotida keyingi sifat jixatdan yangi boskichga uta boshlash uchun mustaxkam shart-sharoit yaratdi. SHu bilan birga, islox kilittning birinchi boskichi natijalari keyingi boskichning strategik maksadlari va yunalishlarini anik belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinchi boskichda iktisodiyotni modernizatsiya qilish va islox etishni yanada chukurlashtirish, investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chukur tarkibiy uzgarishlarni amalga oshirish, shuning negizida iktisodiy usishni ta'minlab, bozor munosabatlarini tulik joriy qilish maksad kilib kuyildi. SHu maksaddan kelib chikib, mazkur boskichda amalga oshirilishi lozim bulgan vazifalar kuyidagi tartibda belgilandi:

- davlat mulkini xususiylashtirish soxasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;
- ishlab chikarishning pasayishiga barxam berish va makroiktisodiy barkarorlikni ta'minlash;

- milliy valyuta - sumni yanada mustaxkamlash;
- iktisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan uzgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor maxsulot ishlab chikarishga utish.

Utish davrining ikkinchi boskichida axolining kam ta'minlangan katlamlarini ijtimoiy ximoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam kursatish borasida birinchi boskichda tutilgan yul davom ettirildi.

II. PREZIDENTIMIZNING USHBU ASARDA KELITIRILGAN ISHONCHLI VA TARIXIY FIKRLARINING MOHIYATI

2.1. Keksalar – xonadonlarimizning fayzu farishtasi

Bizning mamlakatimizda keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlik, hurmat-ehtirom, mehr-oqibat ko'rsatish ma'naviy hayotimizning tom ma'noda ajralmas qismiga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirda YUrtboshimiz 2015 yilni mamlakatimizda "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilishni taklif etib, "Qarisi bor uyning parisi bor", "Qariyalar -xonadonlarimizning fayzi va farishtasi", degan maqol va hikmatli so'zlarni bejiz ta'kidlab o'tmadilar.

Bugungi dorilomon kunlarda umrguzaronlik qilayotgan faxriylarni hurmat qilish, e'zozlash, ularga e'tibor qaratish barchamizning farzandlik burchimizdir. Oilalarimizning barqarorligini ta'min etuvchi muhim omillardan biri keksalar va yoshlarning munosabatiga borib taqaladi. E'tibor bergan bo'lsangiz, yoshi ulug' otaxon va onaxon yashaydigan xonadonda o'zgacha muhit hukmron bo'ladi.

Har bir ish, tadbir ular bilan kengashib hal qilinadi.

2015 yilning "Keksalarni e'zozlash yili", deb e'lon qilinishi yoshi ulug'larga katta e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish davlat darajasidagi masalaga aylanganini anglatadi. SHu munosabat bilan 2015 yil 18 fevralda YUrtboshimizning "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

«Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor vazifa va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

keksalarga g'amxo'rlik ko'rsatish va e'tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yoshi ulug' insonlarga davlat xizmatlari, shu jumladan, turli

ma'lumotnoma va tasdiqlovchi hujjatlarni olish xizmatlari ko'rsatishning eng qulay tizimini shakllantirish;

keksalar, avvalambor, fashizm ustidan qozonilgan g'alaba va Vatanimizni qayta tiklashga munosib hissa qo'shgan 1941 — 1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, yoshi ulug' insonlar, birinchi navbatda, yolg'iz qariyalar va nogironlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy va maishiy xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, ularni farovon va munosib turmush sharoitlari bilan ta'minlash uchun mahallalar, «Nuroniylar jamg'armasi», boshqa nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy tuzilmalar tomonidan moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash miqyosini oshirish;

faxriylar va yoshi ulug' insonlarga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasi va sifatini oshirish, ularni tizimli asosda sog'lomlashtirishni tashkil etish, profilaktika tadbirlarini ko'paytirish, ko'rish va eshitish organlari, tayanch-harakat tizimi va yurak-qon tomir kasalliklarini davolashning zamonaviy usullari bilan qamrab olish va ulardan foydalanishni kengaytirish, keksalar va nogironlarni yordamchi hamda texnik reabilitatsiya vositalari bilan, jumladan, imtiyozli asosda ta'minlash, keksalarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan sanatoriy-sog'lomlashtirish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash;

mamlakatimizning mudofaa qobiliyati, iqtisodiy, madaniy va intellektual salohiyatini oshirish, jamiyatimizda tinchlik, totuvlik va barqarorlik muhitini mustahkamlashga bebaho hissa qo'shgan, sog'lom va barkamol unib-o'sayotgan avlodni tarbiyalashda faol ishtirok etayotgan keksa avlod vakillariga munosib e'tibor qaratish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni tizimli asosda amalga oshirish, oila va jamiyatda yoshi ulug' insonlarning o'rni va obro'sini oshirish, bolalar va yoshlarni ota-onalarni, har bir nuroniyni chuqur hurmat qilish, e'zozlash va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish tuyg'usi ruhida tarbiyalash bo'yicha aniq tadbirlarni amalga oshirish;

har bir keksaga har tomonlama e'tibor qaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini kuchaytirish va oshirish, keksalarning hayot faoliyati va dam olishini tashkil etish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda ular uchun tuman va mahallalarda muloqot markazlari, qiziqishi bo'yicha klublar tashkil etishga alohida e'tibor qaratish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish, televideniye, ommaviy axborot vositalari, kinoteatrlar, teatr va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshi ulug' insonlarning qiziqishlariga mos mavzuda yangi maxsus ko'rsatuvlar, spektakl va filmlar yaratish va efirga uzatish hajmini ko'paytirish;

mahallalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tashkiliy tuzilmasida keksalar va nogironlarga doimiy e'tibor qaratadigan sektorni mustahkamlash, bunda ularga xizmat ko'rsatadigan idora va xizmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy va tibbiy ta'minot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni nazarda tutish.

O'zbekistonda "Keksalarni e'zozlash yili" davlat dasturini amalga oshirish uchun 2,246 trln so'm va 229,6 mln dollar yo'naltiriladi.

Milliy qadriyatlarimizdan biri yoshi ulug' insonlarni qadrlashdir. Zero, keksalarning oltin o'gitlariga amal qilib yashash komillik, turmush farovonligimiz va tinchlik-osoyishta hayotimiz garovidir.

Istiqlol arafasida, mustaqillikningning ilk yillarida qirq-ellik yoshda bo'lgan, Mustaqillikni mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shgan, kuch-g'ayratini ayamagan kishilar bugun oltmish-etmishdan oshdi, kayvoni, yoshullilar maqomini olishdi, aksariyati hali ham el-yurt xizmatiga kamarbasta bo'lib turibdi.

Bir umr mehnat qilib, farzand tarbiyalab, el-yurt koriga yarab yashayotgan har bir inson keksayganda hurmat-izzat ko'rib, e'zozlanib, hayotidan rozi bo'lib yashashga munosibdir.

Xalqimiz keksalarni hamisha hurmatlab, ehtirom ko'rsatadi. YOshlarimiz nuroniyni ko'rsa, qo'li ko'ksida, salomga shay, xizmatga tayyor turadi. Maslahati-

yu pand-nasihatiga labbay, deydi tanbehiga doim quloq tutadi. Uyining, dasturxonining to'rini yoshi ulug'larga ataydi.

YUrtimizdagi har bir oilada o'zidan kattalarga, ya'ni ota-ona, buvi-boboga hurmat, ularning oldida bir umr qarzдорlik burchi odamiyligimiz timsoli hisoblanadi. SHuningdek oilada katta hayot tajribasiga ega bo'lgan ota-bobolarimiz, onaxonlarimizning o'giti, pand nasihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oqni qoradan, yaxshini yomondan farqlashda, odob-ahloq sirlarini o'rganishda, xalqimiz hayotida asrlardan buyon saqlanib, davom etib kelayotgan rasm-rusum va urf-odatlarini o'rganishda ular yaqin maslahatchiga aylanishgan. SHunday ekan, ko'pni ko'rgan, vatanimiz ravnaqi, uning saodati, yurt kelajagi, shahar va qishloqlarimiz obodligi yo'lida beqiyos hissa qo'shgan otaxon va onaxonlarimizga har tomonlama ehtirom ko'rsatsak, ularning oldida farzandlik burchimizni sadoqat bilan ado etib, ularni boshimizga ko'tarsak arziydi. Bu borada esa yurtimizda juda ko'plab savobli ishlar qilinmoqda.

O'zbek xalqida azal-azaldan keksalarga hurmat-e'tiborda bo'lish, ularni asrab-avaylab, maslahatlariga, nasihatlariga quloq tutish insoniylik xususiyatlaridan biridir. Zero, davlatimiz rahbari Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzalarida :“Har qanday jamiyatning yoshi ulug' odamlarga bo'lgan e'tibori va g'amxo'rliqi uning madaniy darajasini belgilaydi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Soddagina, o'zbekona qilib aytganda, keksalarga hurmat-ehtirom, mehr-oqibat ko'rsatish ma'naviy hayotimizning tom ma'noda ajralmas qismiga aylangan”¹⁷, -deya takidlab o'tdilar.

Ushbu fikrlar barcha yurtdoshlarimizning ko'nglidagi so'zlarni ifodasi bo'ladi. CHindan ham, yoshi ulug' insonlarga hurmat, ehtirom ko'rsatish, ularning duosini olish, e'zozlash xalqimizning qon-qoniga singgan fazilat. Bu fazilat qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

¹⁷ Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi. 2014 yil 6 dekabr.

Bugungi kunda nuroniy otaxonu onaxonlar bilan suhbatlashib, ularning so'zlaridan mustaqil mamlakatimizda YUrtboshimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlardan, tinch va osoyishta hayotdan, farzandlarimizning baxtli kelajagidan faxrlanish tuyg'ularini anglash mumkin. Xonadonlarimizning fayzi va farishtasi bo'lgan nuroniylarimiz o'zlariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikdan ham behad mamnun.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, shu jumladan, urush va mehnat faxriylariga, nogironlarga hurmat ko'rsatish, ularning turmush sharoitini yaxshilash borasida katta ishlar olib borilmoqda.

Bu tabarruk insonlarga vaqtida muruvvat yordamlari ko'rsatish, ularning salomatligini muhofaza qilish hamisha e'tiborda. SHuningdek, mustaqil hayotga endi qadam qo'yayotgan yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishda mahalla faollarining, shu hududda yashovchi keksalarning beminnat maslahatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimizning 2014 yil 13 oktyabrdagi "1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni faxriylarimizning salomatligini muhofaza qilishga, turmush sharoitlarini yaxshilashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. – 2015 yilning "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilingani biz faxriylarga katta g'urur va iftixor bag'ishlamoqda.

Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasida: "... bugun turli sohalarda erishayotgan yutuqlarimizda ota-onalarimiz, mo''tabar qariyalarimizning unutilmas va ulkan xizmati borligini, biz ular oldida umrbod qarzdor ekanimizni unutmasligimiz, qo'limizdan kelganicha ularning og'irini yengil, umrini uzoq qilishni o'zimizning insoniy burchimiz, deb bilishimiz lozim ¹⁸", -degan so'zlari hayotimiz davomida mamlakatimizning ravnaqi, xalqimizning farovonligi yo'lidagi mehnatimizga berilgan yuksak baho desak mubolag'a bo'lmaydi. Ota-onaga

¹⁸ Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi. 2014 yil 6 dekabr.

hurmat, qariyalarni qadrlash xalqimizning azaliy fazilatlaridan hisoblanadi. Demak, yangi yilda ham qariyalarimizni ijtimoiy muhofaza qilish, ularga har tomonlama hurmat ko'rsatish borasida qator xayrli ishlar izchil davom ettiriladi. Bu esa keksalarning qalbini tog'dek ko'tarishi shubhasiz.

Bundan tashqari, 2014 yilning 12 dekabrda mamlakat rahbari farmoyishiga muvofiq "Keksalarni e'zozlash yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etilib, Davlat dasturi qabul qilindi.

Dasturda yoshga oid kasalliklar, jumladan, ko'rish va eshitishning zaiflashuvi kabi kasalliklar profilaktikasi hamda keksa avlod vakillarini sog'lomlashtirish tadbirlarini yanada takomillashtirish keksalar uchun qulaylik tug'diruvchi, shu jumladan, ularga turli ma'lumotnoma va tasdiqlovchi hujjatlarni olishda barcha qulayliklarga ega davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini shakllantirish, ko'rish, eshitish va harakatlanishda muammosi bor insonlarni rehabilitatsiyaning texnik hamda boshqa yordamchi vositalar bilan taminlash kabi tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Dasturni shakllantirishda keksa avlod vakillarining har biri yosh toifasining alohida ehtiyojlariga e'tibor qaratiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, 60 yoshdan 74 yoshgacha bo'lgan aholi-keksalar, 75 yoshdan 89 yoshgacha bo'lgan aholi –qariyalar, 90 va undan ortiq yoshdagilar uzoq umr ko'ruvchilar hisoblanadi.

Keksa avlod vakillarining maroqli hordiq olishini tashkil etish maqsadida ularning qiziqishiga mos ko'rsatuvlar, spektakllar va filmlar namoyishini ko'paytirish, yangi ko'ngilochar madaniy va ma'rifiy loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Dasturda keksa avlod vakillarining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlariga yetarli shart-sharoitlar yaratish, ularga mos sayyohlik xizmatlarining turi va shaklini kengaytirish ham ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda Navoiy viloyati hududida istiqomat qilayotgan qariyalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga g'amxo'rlik ko'rsatish har doim jamg'armaning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Bayramlarda ularning holidan xabar olish, homiylik

yordamlari tashkil etish, moddiy qo'llab-quvvatlash an'anaga aylanib qoldi. O'tgan yil Navro'z — umumxalq bayrami munosabati bilan 60 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj oilaga, nogironlar, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va 100 yoshli keksalarimizga 2 million 300 ming so'mlik sovg'alar tashkil etildi.

Bundan tashqari, 9 may — Xotira kuni munosabati bilan viloyatdagi 153 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisiga 91 million 80 ming so'm mablag' yetkazib berildi. Viloyat "Vatanparvar" tashkiloti va jamg'arma hamkorligida urush qatnashchilarining har biriga 52 ming so'mlik oziq-ovqat tarqatildi. 100 nafar front orti va mehnat faxriysiga, bemor keksalarning har biriga 50 ming so'mlik dori-darmon ajratildi.

Viloyat va tuman (shahar) "Nuroniylar" jamg'armalari tomonidan "O'tganlarni xotirlash, tiriklarni qadrlash", "Qariyalarni qadrlash", "Xotirlash — savob ish" mavzularidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham bugungi avlod tarbiyasida hayot maktabi vazifasini o'tamoqda. Talaba va o'quvchi yoshlardan iborat "Madad", "g'amxo'rlik" guruhlar urush qatnashchilari, nogironlarning xonadonlariga borib, ularning holidan xabar olishayapti, ehtiyojlarini qondirib, uy-ro'zg'or ishlariga ko'mak berishayotir.

Muxtasar qilib aytganda, vatanimiz ravnaqi, uning kelajagi bo'lmish yosh avlodni munosib darajada tarbiyalashda, shuningdek boy tariximizning o'chmas sahifalarini, ajdodlarimizning buyuk merosini, qadriyat va urf-odatlarimizni kelajak avlodga yetkazishda o'zining matonati, irodasi bilan fidoiylilik qilayotgan keksa avlod vakillariga hurmat va ehtirom ko'rsatish, ularni e'zozlab, qadriga yetish, asrab avaylash, turli shart-sharoitlar yaratish har birimizning farzandlik burchimizdir.

2.2. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilmli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart. Prezidentimizning yoshlarga bo'lgan yuksak ishonchi va e'tibori

Davlatimiz rahbari respublikaga rahbar bo'lib tayinlangan kundanoq aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport ishlariga muhim e'tibor qaratdi. Chunki, respublikada ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan edi. Maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan edi. Insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham yetishmayotgan edi.

Darhaqiqat, 80-yillarning ikkinchi yarmida xalq ta'limi, oliy ta'lim tizimida ham sustkashlik, foizbozlik illatlari chuqur ildiz otib, milliy jihatlar inobatga olinmas edi. Manbalarga ko'ra, 1987 yilning sentyabrida respublikadagi jami maktablarning 5596 tasi (72,1 foizi) ikki smenada; 23 tasi hatto uch smenada ishlardi. 1178,7 ming o'quvchi ikkinchi smenada o'qir edi. 50 foiz maktab ta'lim-tarbiya muassasalariga mos bo'lmagan binolarda joylashgan edi. Ularda 1204 ming o'quvchi o'rni bor edi. Faqat 2812 (40 foiz) ta maktabda moslangan sport zallari, 22 tasida suzish basseyni, 1934 (25foiz) tasida sport turi mavjud edi. Qoraqalpog'iston Respublikasida 23,2 foiz, Navoiy viloyatida 25 foiz, Jizzax viloyatida 27 foiz, Qashqadaryo viloyatida 26,3 foiz, Samarqand viloyatida 21 foiz, Surxondaryo viloyatida 28 foiz maktab moslangan sport zallariga ega edi xolos. Qishloqlardagi 6273 maktabdan atigi 977 tasi (15,5 foiz) o'z tajriba xo'jaligiga ega edi¹⁹.

Maktablardagi ta'lim-tarbiyaning hayot bilan, ta'limning foydali mehnat bilan mustahkam bog'lanmagani, «pedagogik kadrlar nazariy tayyorgarligining pastligi, ta'lim-tarbiya vazifalari va asosiy tamoyillarini aniqlashda aniq o'lchovlarning ishlab chiqilmagani, berilayotgan va olinayotgan bilimlar darajasining talablarga javob bera olmasligi o'quvchilariing bilimsizligiga, foizbozlikka olib keldi.

¹⁹ Ergashev Q. O'zbekistonda xalq ta'limi rivoji tarixi. - T.: "O'qituvchi", 1998. - 41-bet.

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasidagi qoloqliklarni bartaraf etishga, uni tubdan isloh etishga, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlashga kirishildi. 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning yaratilishi va hayotga tadbqiq qilinishi mustaqillik yillarimizdagi eng muhim yutuqlarimizdan biridir.

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasidagi qoloqliklarni bartaraf etishga, uni tubdan isloh etishga, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlashga kirishildi. 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning yaratilishi va hayotga tadbqiq qilinishi mustaqillik yillarimizdagi eng muhim yutuqlarimizdan biridir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining eng muhim O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 9+3 dasturini amalga oshirish va 3 yillik akademik litsey va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirildi. Zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlangan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etildi, yangi ta'lim standartlari yaratildi va o'quv jarayoniga joriy etildi.

Eng chekka qishloqlarda ham zamonaviy maktablar, litsey va kasb-hunar kollejlari bunyod etildi. Bu ishlarning natijalari jahon hamjamiyatini befarq qoldirmadi. 2012 yili Toshkentda bo'lib o'tgan "YUksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzuidagi xalqaro konferensiyada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim va tarbiyaning milliy modeli ekspertlar tomonidan boshqa davlatlar uchun andoza sifatida tavsiya etildi.

Biroq bunday e'tirofdan hech kim havolanish kayfiyatiga berilib ketgani yo'q. Texnologiyalar va internet asri xotirjamlikka o'rin qoldirmaydi. SHuning uchun ham, ta'lim sohasidagi islohotlar jadal sur'atlarda davom ettirilmoqda. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda 10 mingga yaqin maktab, 141 ta akademik litsey, 1400 dan ortiq o'rta-maxsus, kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda.

Hukumatimizning yaqinda bo'lib o'tgan majlisida ta'kidlanganidek, ta'lim sohasida faqat o'tgan yilning o'zida 540 dan ziyod ob'ekt, jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey binolari tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi.

Birgina Navoiy viloyatida mustaqillik yillarida 4 ta akademik litsey, 47 ta o'rta-maxsus, kasb-hunar kollejlari yangidan bunyod etildi. Ikki oliy o'quv yurti Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etildi. O'rta Osiyoda yagona bo'lgan konchilik institutining yangi binosi bugun viloyatda qadrlamoqda.

O'zbekiston yoshlari istiqbol ne'mati tufayli aqli, zukkoligi bilan ilm-fan yo'lidagi dadil qadamlari orqali jahon ahlining diqqat e'tiborini tortmoqda. Kattakatta Xalqaro miqyosdagi bilimdonlar bahslarida o'zbekistonlik yoshlar o'z bilimlarini donolik, o'ktamlik va zukkolik bilan namoyish etishmoqda. O'g'il-qizlarimiz bugun bilim va tafakkurning kuchi va salohiyati bilan O'zbekiston degan nomni baralla yangratib, ellardan-ellarga ovoza qilayotirlar. So'nggi yillar davomida umumta'lim fanlari bo'yicha 100 dan ziyod o'zbekistonlik maktab o'quvchilari Yaponiya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Gretsiya, Sloveniya mamlakatlarida turli fanlardan o'tkazilgan nufuzli olimpiadalarda ishtirok etib, qator oltin, kumush, bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

Mustaqilligimiz tufayli yurtimiz va xorijiy davlatlar o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar o'qishga va malaka oshirishga boradigan bo'ldilar. Bugungi kunda bir necha xorijiy tillarda gaplasha oladigan va shu bilan birga, o'z fikrini ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta oladigan yoshlarimiz ko'paymoqda.

Mustaqilligimiz tufayli yurtimiz va xorijiy davlatlar o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar o'qishga va malaka oshirishga boradigan bo'ldilar. Bugungi kunda bir necha xorijiy tillarda gaplasha oladigan va shu bilan birga, o'z fikrini ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta oladigan yoshlarimiz ko'paymoqda.

Biror xalq hayotida tub burilish sodir bo'layotgan davrda jamiyat yangi istiqbollar sari bormog'i uchun avvalo jamiyat tafakkurida, dunyoqarashida, ma'naviy olamida o'zgarishlarni taqozo etadi. YUrtboshimizning qator asarlarida, ma'ruza va so'hatlarida ma'naviy-madaniy qadriyatlarning mohiyati, ularni tiklash zarurligi har tomonlama, chuqur asoslab berildi. Prezidentimiz aniqlab bergan vazifalar asosida madaniy-ma'naviy yuksalishga intilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, davlatimiz bu sohada aniq, izchil harakat qilib, o'tgan yillarda salmoqli ishlarni amalga oshirdi.

Prezident Islom Karimov tomonidan 1989 yilning oktyabr oyida – hali sobiq mustabid tuzum hukmron bo'lib turgan bir paytda qo'yidagi fikrni bildirgan edi.

“Agar kelajagimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak...Iqtisodimizni, hayotimizni o'zgartirish ana shularga bog'liq. Agar shuni qilmasak, bu yurishimizda katta yo'lga chiqishimiz qiyin bo'ladi.

Aytish kerakki, kadrlarni har tomonlama yetuk qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki biron-bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi”.

Xalqimizga nisbatan tazyiq va ta'qiblar avj oldirilgan ana shu og'ir va murakkab davrda YUrtboshimiz qalbida **barkamol avlod orzusi** ozod va mustaqil hayotga erishish maqsadi bilan uyg'un holda tug'ilgan edi, deb aytishga bugun yetarli asoslar bor. Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog'liq ezgu intilish bo'lgani bois istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib kelmoqda.

“Biz alamzada emasmiz, kechagi hayotdan norozi bo'lib, kimgadir qandaydir talab qo'yishdan ham yiroqmiz. Kimlardir bir vaqtlar yurtimizdan ulkan boyliklarni olib ketgan bo'lsa, mayli, boylik topiladi. Ammo shuni bilib

qo'yinglar, bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimiz, yoshlarimizdir”²⁰- deb ta’kidlaydi Prezidentimiz I.Karimov.

YUrtimizda **2008 yilga “YOshlar yili” deb nom** berilishi va shu munosabat bilan maxsus Davlat dasturining qabul qilinishi bu borada amalga oshirilayotgan keng ko’lamli ishlarning yangi va yuksak bosqichi bo’lishi shubhasiz. Bugungi kunda mamlakatimizda **18 yoshgacha** bo’lgan yoshlar **10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo’lganlar esa – 17 million 80 ming nafarni yoki 64 foizini tashkil etadi.** Aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan ana shu ijtimoiy qatlamning yechilishi lozim bo’lgan muammolariga e’tiborni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish bilan bog’liq keng ko’lamli vazifalarni amalga oshirish ushbu dasturning asosiy maqsadidir.

Ayni shunday qarash yosh avlod tarbiyasida markaziy o’rinda turishi, eng asosiysi, hayotga kirib kelayotgan farzandlarimizga nafaqat sharoit va imkoniyatlar yaratib berish, ayni paytda ularni shu aziz Vatanga munosib farzand bo’lishga da’vat etish, “mening davrim keldi, deb emas, aksincha, o’z davrim, o’z kelajagimni o’zim yarataman”, deb yashashga o’rgatish hayot talabi ekaniga alohida to’xtalib o’tish lozim.

Prezidentimiz yoshlarga qarata **“Agarki qachon biz xohlagan zamon kelsa, ana o’shanda murodimizga yetamiz, degan fikr bilan bemalol yuradigan bo’lsak, bilib qo’yinglar, bunday zamon hech qachon o’z-o’zidan kelmaydi, o’zimiz istagan zamon uchun kurashish, kerak bo’lsa, o’zimizni, butun borlig’imizni berishimiz lozim. SHunday intilish bilan yashasak, nafaqat o’z hayotimiz, balki kelajak avlodlarimiz hayotini, ularning ertangi yorug’ kunini o’zimiz, o’z qo’limiz bilan barpo etgan bo’lamiz”**, - deb ta’kidlaydilar.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ayni shu borada amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar tufayli hayotimizning ma’no-mazmuni, ongimiz, dunyoqarashimiz tubdan

²⁰ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo’lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O’zbekiston, 2015. –B.29.

o'zgarmoqda. YOshlarimiz bilan birga barchamiz ham o'sib-ulg'ayib, mutlaqo yangi odamlarga – mustaqil yurt egalariga aylanmoqdamiz. Bunday tub o'zgarishlar mohiyatini anglash uchun kechagi va bugungi kunimizni qiyoslash, taqqoslash kifoya.

SHuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning markazida yoshlar masalasi belgilab olingan. Binobarin, ularning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida 2014 yilning 6 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2124 Qarori chiqdi. Bu Qaror mamlakatimizda yoshlar siyosati bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarning izchil davomi sifatida kelgusida bajarishimiz lozim bo'lgan ishlarimizni belgilab beruvchi dastur bo'ldi.

“Hozirgi kunda yurtimizning qaysi shahar yoki qishlog'iga bormang, eng muhtasham, eng ko'rkam binolar bu maktablar, litsey va kollejlari, madaniyat, san'at va sport maskanlari emasmi? Ilgari bunday imoratlar qayerda edi? Biz, aytaylik, kimnidir hayratda qoldirmoqchi bo'lsak, mehmonlarni qayerga olib borar edik? Qoramollar boqiladigan fermaga. SHuncha sigirimiz bor va ulardan yiliga buncha sut olinadi, deb maqtanar edik. Bugun biz nima bilan maqtanayapmiz, maqtanish ob'ekti va sub'ekti kim bo'ldi? Bizning ta'lim-tarbiya maktablarimiz va ularda o'qiyotgan bolalarimiz emasmi?”

Ayni shu yo'lni tanlaganimiz eng to'g'ri, tarixiy qadam bo'ldi. CHunki bizning ertangi kunimizni kim qo'radi – bolalarimiz quradi, indingi kunimizni kim quradi – nevaralarimiz quradi²¹.

YAna bir diqqatga sazovor jihati shundaki, Islom Karimov har qaysi viloyat yoshlarining yutuqlarini ayni ular yashayotgan hudud yutuqlariga, ularning oldida

²¹ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O'zbekiston, 2015. –B.30.

turgan vazifalarni esa ular tug'ilib voyaga yetgan voha, shahar va albatta, mamlakat taraqqiyotiga oid vazifalarga bog'liq holda tahlil qiladi. Bunday dialiktik qarash, hech shubhasiz, yosh avlodni o'z tug'ilib usgan yurti bilan birga, butun O'zbekistonning taqdiri va kelajagini o'z taqdiri va kelajagi deb bilishga undashi, ularning qalbida ona Vatanga farzandlik mehri va sadoqatini kuchaytirishga xizmat qilishi tabiiydir.

Bugungi yoshlarimiz o'rta asrlarda dunyoda ilm-fan sohasida yuksak salohiyatni qo'lga kiritib, jahonni qoyil qoldirgan avlodlarning vorisi ekanligini istiqlool tufayli qayta tikladi.

O'zbekiston yoshlari istiqlool ne'mati tufayli aqli, zukkoligi bilan ilm-fan yo'lidagi dadil qadamlari orqali jahon ahlining diqqat e'tiborini tortmoqda. Kattakatta Xalqaro miqyosdagi bilimdonlar bahslarida o'zbekistonlik yoshlar o'z bilimlarini donolik, o'ktamlik va zukkolik bilan namoyish etishmoqda. O'g'il-qizlarimiz bugun bilim va tafakkurning kuchi va salohiyati bilan O'zbekiston degan nomni baralla yangratib, ellardan-ellarga ovoza qilayotirlar. So'nggi yillar davomida umumta'lim fanlari bo'yicha 100 dan ziyod o'zbekistonlik maktab o'quvchilari Yaponiya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Gretsiya, Sloveniya mamlakatlarida turli fanlardan o'tkazilgan nufuzli olimpiadalarda ishtirok etib, qator oltin, kumush, bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

Mustaqilligimiz tufayli yurtimiz va xorijiy davlatlar o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar o'qishga va malaka oshirishga boradigan bo'ldilar. Bugungi kunda bir necha xorijiy tillarda gaplasha oladigan va shu bilan birga, o'z fikrini ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta oladigan yoshlarimiz ko'paymoqda.

Bu fikrlarni quyidagi misol ham tasdiqlaydi:

“YOshlar haqida men boshqa viloyatlarda ham ko'p gapiraman. Bugun Toshkent viloyatining yoshlariga qarata, bolalarim, siz shunday bir zamonda yashayapsizki, o'zingizni ko'rsatishingiz, bor imkoniyat va salohiyatingizni ishga solishingiz mumkin, deb aytmoqchiman. O'zingiz qarang, sizlarning bugun har qadamda tashabbus ko'rsatishingiz uchun qanday imkoniyatlar

yaratilgan. YA’ni, sizning qalbingizda o’z yurtini sevish, shu yurt uchun yonib yashash tuyg’usi boshqacha bo’lib, bu – sizlarning baxtingiz, desak, to’g’ri bo’ladi”²².

Bugungi kunda har birimiz mamlakatimizda bo’layotgan ana shunday olamshumul o’zgarishlar, iqtisodiy va ijtimoiy, ma’naviy va madaniy taraqqiyotimizga keng yo’l ochib bergan buyuk ne’mat – mustaqilligimizni asrab-avaylashimiz, uning abadiyligini ta’minlashimizga xissa qo’shishimiz zarur va shartdir. Zero, kelajak avlodlarimizga erkin va farovon hayotni taminlash har bir fuqaromizning muqaddas burchidir.

²² Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo’lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O’zbekiston, 2015. –B.31

XULOSA

Mustaqillik bizning milliy-madaniy qadriyatlarimizning naqadar boy va teran tafakkur uslubini shakllantirishga imkoniyat ochib berdi. Oqibatda milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda hamda ularni milliy iftixor ruhida tarbiyalashda qudratli tarbiyaviy negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik darslari ham yoshlarimizda xulq-odob tamoyillarini o'zida mujassam etgan shaxsda halollik, poklik, mehr-shafqat, adolat va haqiqatgo'ylik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo'lish, kamtarlik, or-nomus kabi fazilatlarining yanada rivojlanishiga xizmat ko'rsatishi lozim.

Biror bir voqea va hodisa yoki tarixiy jarayonga baho berishdan avval, uni avvalgisi bilan qiyoslash tarixchi olimlar orasidagi an'nanaga aylangan. SHu o'rinda mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar borasida gap ketganida mustaqillik yillarida asrga tatigulik ishlarning amalga oshirilganligi haqida behad ko'p gapirish mumkin.

Bu borada qator horijiy davlatlarning ta'lim sohasi bo'yicha ekspertlari, mutaxassislari mamlakatimizda ushbu sohaga berilayotgan e'tiborni bir necha bor e'tirof etib o'tdilar. Jahon intellektual mulk tashkiloti va yetakchi xalqaro biznes-maktablardan biri — "INSEAD" tomonidan 2012 yilda inson kapitalining taraqqiyot darajasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston 141 mamlakat orasida 53-o'rinni, ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi, jumladan, ta'lim maqsadlari uchun ajratiladigan mablag'lar bo'yicha esa dunyoda beshinchi o'rinni egallagani bejiz emas.

Biz ta'lim sohasidagi islohotlarni ijobiy tomonlarini ta'kidlagan holda o'tgan asrning olamshumul voqealaridan biri bo'lgan 90-yillarida boshqa sovet respublikalari qatori O'zbekiston ham 130 yillik qaramlikdan mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tganligi va bunday muvaffaqiyatga erishish borasida Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligidagi xalqimizning boshidan kechirgan kechagi kuni, yaqin tariximizda ro'y bergan

voqealarni bugungi va kelajak avlodlarimizning ongu shuuriga yetkazish, shu bilan birga unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni tarix saboqlari bilan, tarix haqiqati bilan qurollantirish biz ta'lim xodimlarining asosiy vazifalarimizdan biridir.

SHu oroqali yosh avlodning istiqlool tufayli o'zligimizni anglab, o'z taqdirimizni o'zimiz belgilash huquqiga ega bo'lishimizda xalqimizning avlodlarga ibrat va namuna bo'ladigan qahramonliklarni amalga oshirganligini anglab yetishga, mustaqilligimizni qadrlash va uni mustahkamlash uchun javobgarlik xissini kuchaytirishga erishiladi.

O'zbekiston o'ta murakkab demografik vaziyat shakllangan davrda mustaqillikka erishgan edi. O'sha paytda respublikada aholining o'sish sur'atlari o'rtacha ittifoq ko'rsatkichidan 3 barobar yuqori bo'lib, mehnat resurslari aholining o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan 2 barobar kam edi. Buning ustiga, shunday bir tang vaziyatda yangi ish o'rinlari yaratish umuman to'xtagan edi. Ayniqsa, o'sha paytda aholimizning 60 foizdan ortig'i istiqomat qilayotgan qishloqlarda sharoit juda og'ir edi. SHu bois ham uy-joy qurish va dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun 2,5 million oilaga 700 ming gektar sug'oriladigan yer tomorqa uchun ajratib berilgani ulkan tarixiy voqea bo'ldi. Bu eng og'ir o'tish davrida jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, qishloq aholisi turmush darajasi tushib ketishining oldini olish imkonini berdi.

Mamlakatda tizimli asosda, bosqichma-bosqich ijtimoiy sohalarni isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan, dunyoda yuksak e'tirof etilgan umummilliy dasturlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, bolalar sportini, san'at maktablarini, sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash, yurtdoshlarimizning ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, aholi turmush sharoitini yaxshilash va qishloqda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurish borasidagi dasturlar bugungi kunda ulkan amaliy samaralar bermoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda aholi yalpi daromadlari 16 barobar oshdi. Keng ko'lamli ishlarning yakuniy natijasi sifatida aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 67 yoshdan 73,2

yoshga yetdi. Biz ushbu ko'rsatkich bo'yicha dunyoning rivojlangan davlatlari darajasiga yaqinlashdik.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti 4,1 barobar, aholining yalpi real daromadlari jon boshiga 8,2 karra oshdi. Keyingi 9 yil davomida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 8 foizdan kam bo'lmasdan kelayotgani iqtisodiyotimizni rivojlangan davlatlar darajasiga yaqinlashayotganidan dalolat beradi.

Bugun "O'zbek modeli"ni amalga oshirish jarayonida katta yutuqlarga erishdik. Buning isboti sifatida jahonning turli sotsiologik tadqiqotlarida O'zbekistonning yuqori reytinglarda o'rin egallaganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Ayni paytda O'zbekistonda "Islohot islohot uchun emas, inson uchun" tamoyilini hayotga tatbiq etish davom etmoqda. O'tgan 2014 yil muvaffaqiyatli bo'ldi va jamiyatimizga, har bir fuqaro hayotiga ulkan o'zgarishlar olib keldi. Buni "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi o'tkazgan so'rov qatnashchilarining 98 foizi ta'kidladi. SHaharlar chiroy ochmoqda. Britaniyaning nufuzli "Ekonomist" jurnali o'tkazgan so'rovga ko'ra, o'tgan yili poytaxtimiz obodligi va qulayligi bo'yicha dunyoning 140 ta shahri ichida 58-o'rinni egalladi va jahon klassifikatsiyasida yashash uchun eng qulay sharoitlarga ega shaharlar safidan o'rin oldi. Bir oz oldinroq MDHdagi shaharlar ichida faqat Samarqand Amerikaning "The Huffington Post" nashrida e'lon qilingan "albatta borib ko'rish lozim bo'lgan dunyoning 50 shahari" ro'yxatiga kiritilgandi. Ayni paytning o'zida Amerikaning "Gallup" tadqiqot kompaniyasi tuzgan "yaxshi kayfiyat indeksi" bo'yicha Vatanimiz 136 mamlakat ichida 29-o'rinni egallagandi. Bu ro'yxatda mamlakatimiz nafaqat Hamdo'stlikdagi barcha qo'shnilarni, balki Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarni ham ortda qoldirdi. Zero, O'zbekistonda hayot kundankunga yaxshilanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014. –47 b.
2. Davlat tili haqida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 1997. – 22 b.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: SHarq, 1997. – 63 b.
4. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 1989. – 30 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1- jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
7. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 366 b.
8. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4- jild.–T.:O'zbekiston,1996.–349 b.
9. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – T.: O'zbekiston, 1997. –384 b.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent : SHarq, 1998. - 31 b.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. – T.: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
12. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999. – 410 b.
13. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000. – 528 b.
14. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. – T.: O'zbekiston, 2001. – 432 b.
15. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild. – T.: O'zbekiston, 2002. – 432 b.
16. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo

bilan hamkorlik yo'li. 11- jild. – T.: O'zbekiston, 2003. – 320 b.

17. Karimov I.A. Tinchlik va havfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12 - jild. T.: "O'zbekiston" 2004.-400 b.

18. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech kimga, hech qachon qaram bo'lmaydi. 13-jild. – T.: O'zbekiston, 2005.-448 b.

19. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. – T.: O'zbekiston, 2007.-318 b.

20. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16-jild. – T.: O'zbekiston, 2008.-366 b.

21. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. – T.: O'zbekiston, 2009.-280 b.

22. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. 18-jild. – T.: O'zbekiston, 2010.-264 b.

23. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild. – T.: O'zbekiston, 2011. -348 b.

24. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. 20-jild. - T.: O'zbekiston, 2012. -312 b

25. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir. 22-jild. T.: O'zbekiston, 2014. 352 b.

26. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

27. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

28. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – B.24.
29. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. –T.: O'zbekiston, 2010
30. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. -Toshkent: O'zbekiston, 2010
31. Karmmov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2012. -440 b.
32. Karimov I.A. “O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi nutqi. Samarqand. 15-16 may, 2014 yil.
33. Karimov I.A. “O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan ma'ruzasi. Toshkent. 07.06.2014.
34. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O'zbekiston, 2015. -304 b.
35. Abdullayev A. Paxta yakkahokimligi: oqibat va saboqlar (1917–1991 yy.) – Toshkent: Istiqlol, 2006.
36. Abdullayev SH. Ferganskiye sobyitiya i «etnicheskiy paradoks» sovremennosti // Zvezda Vostoka. – 1991. - № 6.-S. 132-136.
37. Azizxo'jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. – - T., 2001.